

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT

PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Pedagogika fakulteti dekani

_____ prof.To`raqulov X.A.

“ _____ ” _____ 2011 y.

141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITINI YARATISHNING ILMIY – NAZARIY ASOSLARI mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Abdurasulov Sadriddin.

Ilmiy rahbar: prof.To`raqulov X

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

prof.To`raqulov X

(илмий раҳбар исми ва шарифи)

_____ (имзо)

BMI BTN va A kafedra

yig'ilishining qarori bilan (Qaror № 10, 20.05.2011 y)

himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

prof.Jumanazarov U.A.

(Ismi va sharifi)

_____ (imzo)

Jizzax - 2011

M U N D A R I J A

MAVZU: AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITINI YARATISHNING ILMIIY – NAZARIY ASOSLARI

KIRISH

I BOB. AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITINI YARATISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

- 1.1. Boshlang'ich ta'limning ijtimoiy va pedagogik asoslari.
- 1.2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning pedagogik – psixologik jihatlari.
- 1.3. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitining pedagogik jihatlari.

II BOB. AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITINI YARATISHNING METODIK ASOSLARI

- 2.1. Ta'lim jarayonini axborotlashtirishning metodologik asoslari.
- 2.2. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda axborotlashtirilgan ta'lim muhitidan foydalanish.
- 2.3. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitini yaratishning nazariy – metodologik asoslari.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil Respublikamizning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va intellektual jihatdan yangilanishi, uning jahon hamjamiyatiga to'laqonli qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurishda kadrlar tayyorlashning "Milliy modeli" ustivor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov – "Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligini, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorining andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan tub islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir", - deb aytgan edilar. Chunki, xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat, ma'naviyat, iqtisodiyot, ilm – fan, texnika – texnologiyalar yangi tizimini shakllantirish Respublikamizdagi davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan hisoblanadi.

Bu borada Respublikamizda e'tiborga molik ishlar olib borilmoqda. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (1997), Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997) va qator kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot - kommunikasiya texnologiyalarni amaliy faoliyatga joriy etish borasida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30-maydagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 23-maydagi va 2002 yil 6-iyundagi qarorlari va boshqalar) Farmon va qarorlar hamda ular asosida Respublikani 2010 yilga qadar axborotlashtirishni qayta qurishning ilmiy dasturlari va telekommunikasiya tarmoqlarini rivojlantirishning me'yoriy huquqiy asoslari yaratildi. Bu uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga tegishlidir.

Bu qayd etilgan me'yoriy va huquqiy asoslar uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lmish boshlang'ich ta'limga ham bevosita taaluqli. Mazkur sohadagi axborotli jarayonlarni tizimli tadqiq etish masalalarini axborot – kommunikasion texnologiyalardan keng foydalanish sharoitida yaxlit ta'lim tizimi

sifatida qarash, integrasiyalash tamoyillarini ishlab chiqish asosida boshlang'ich ta'limda axborotlashtirilgan ta'lim muhiti (ATM) ni yaratish muammosi ushbu sohaning dolzarb muammosidir. Chunki, boshlang'ich ta'limga oid faoliyatning turli yo'nalishlarini axborotli qo'llab-quvvatlash ta'limni axborotlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bu esa o'z navbatida o'qituvchilar oldiga turli xil predmetlarni o'qitishning metodik tizimini tadqiq etish uchun shart – sharoit yaratuvchi, ATM ni shakllantirishga umumiy konseptual va metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyojni va ulardan amaliy faoliyatda keng foydalanish texnologiyalarini yaratish muammosini qo'ymoqda.

Mazkur malakaviy bitiruv ishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning ATM ni yaratish metodologiyasini yoritishga bag'ishlangan. Bunda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga ATM ni ishlab chiqishning ilmiy – nazariy asoslarini bayon qilingan. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda axborot – kommunikasion texnologiyalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish texnologiyalari haqidagi materiallar, bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi multimediali ta'lim texnologiyalari va ulardan zamonaviy bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda foydalanishga tayyorlangan uslubiy tavsiyalar bayon qilinadi.

Tadqiqot maqsadi: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga axborotlashtirilgan ta'lim muhitini yaratishning metodik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi ta'lim jarayoni.

Tadqiqot vazifalari:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy – axborotli ijtimoiy va pedagogik asoslarini aniqlash;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy – axborotli tayyorgarligini oshirishda zarur bo'ladigan ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning pedagogik – psixologik jihatlarini asoslash;

- bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta'limni axborotlashtirishning metodologik ta'minotini ishlab chiqish;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda axborotlashtirilgan ta'lim muhitidan foydalanish tamoyillarini ishlab chiqish.

Tadqiqot predmeti: boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy – axborotli tayyorgarligini ta'minlashning texnologik tizimi, shart – sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari.

Tadqiqot metodlari: analitik obraz, qiyosiy tahlil, savol – javob, suhbat, umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim – tarbiya tizimini rivojlantirishga oid qarorlari, Oliy va o'rta maxsus hamda Xalq ta'limi vazirliklarining me'yoriy hujjatlari, Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi, Boshlang'ich ta'lim DTS.

Ishning ilmiy yangiligi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy – axborotli faoliyatga tayyorlashda ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash texnologiyasi;

- ta'lim jarayonini axborotlashtirishning metodologik asoslarining ishlab chiqilishi;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda axborotlashtirilgan ta'lim muhitidan foydalanishning yo'llari ishlab chiqilishi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy – axborotli faoliyatga tayyorlashda axborotlashtirilgan

ta'lim muhitidan foydalanish ta'lim jarayonini axborotlashtirishning nazariy – metodologik asoslarini ishlab chiqishga fundamental – didaktik asos bo'la oladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy – axborotli faoliyatga tayyorlashda axborotlashtirilgan ta'lim muhitidan foydalanish ta'lim jarayonini axborotlashtirishning amaliy – metodik ta'minotini ishlab chiqishga mustahkam didaktik asos bo'ladi.

Himoyaga olib chiqadigan holatlar:

- boshlang'ich ta'limning ijtimoiy va pedagogik asoslari;
- ta'lim jarayonini axborotlashtirishning pedagogik asoslari;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy – axborotli faoliyatga tayyorlashga oid ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash texnologiyasi;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy – axborotli faoliyatga tayyorlashda axborotlashtirilgan ta'lim muhitidan foydalanish yo'llari.

BMIning tuzilishi: Mazkur bitiruv malakaviy ish kirish qismi, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. AXBOROTLASH TIRILGAN TA'LIM MUHITINI YARATISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

1.1. Boshlang'ich ta'limning ijtimoiy va pedagogik asoslari.

Ta'lim inson tafakkurini kengaytiradi va o'z navbatida inson hayoti ravnaqiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Bu borada-kishilik jamiyati madaniyati va taraqqiyoti insondagi yashirin imkoniyatlar, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tashabbuskorliklarda voyaga yetib kelayotgan yoshlarimizning bugungi hayotidagi faol ishtirokiga bog'liq. Bunga mamlakatimizda tashkil etilgan yangi ta'lim tizimi keng imkoniyatlarni yaratib berdi. Ayniqsa "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta'lim oluvchilar shaxsini ijtimoiylashtirish va bu borada boshlang'ich ta'limining vazifasi sezilarli darajada kengaytirildi.

Boshlang'ich ta'lim mazmun – mohiyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning fundamental asoslari u nihoyatda chuqur va qimmatli tarixiy ildizlarga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bundan 3000 yil ilgari Ona diyorumizdagi turmush tarzimizni ifodalovchi muqaddas kitob "Avesto" da yoki "Qur'oni Karim" va "Hadisi Sharif" larda komil inson talqinidagi ko'rsatkichlar ichida albatta asosiysi dastlabki madaniyatiga, ma'rifatga qaratilgani hych kimga sir emas.

Demak, boshlang'ich ta'lim kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida ham muhim bo'lgan. Ular buyuk tafakkur egalarini yanada ulug'likka ko'targan va hattoki jamiyat (davlat) taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsata olgan. Ayniqsa, Ona diyorumizda yashagan ulug' insonlarimiz-mutafakkirlarimiz, davlat arboblarmiz va boshliqlarmiz ilm hamda ma'rifat homiysi bo'lganligi diqqatga sazovardir. Bu borada dalil sifatida quyidagi bir fikrni keltiramiz. "Sharq O'yg'onish davrining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy nodir dostonlar ijodkori va g'azal mulkining sultoni bo'libgina qolmay, **ma'naviy kamolot, axloqiy go'zallik, insof, adolat, halollikning peshvosi, asosi bo'lgan bunyodkor mehnatni, kasb-hunarlarining buyuk qadr-qimmatini ulug'lovchi,**

hunarparvar ustoz ham edi. Uning ustozligida, homiyligida voyaga yetgan Behzod, ustoz Shamsiddin, Mirak Naqqosh, Sultonali Mashhadiy, Muhammad Mu'in, Yusuf Badeiy, Ustod Noiy, Darveshali Changiy, Shamsiddin Andijoniy, Pahlavon Mahmud, Abu Sa'id, Qozi Nizomiddin, Ataulloh Husayniy, Zayniddin Vasifiy, **Mirxond**, uning nabirasi **Xondamir**, Kamoliddin Xusayn, Fasihiddin Muhammad, G'iyosiddin Muhammad, Nizomiddin Shayxim Suhayliy, Shamsiddin Badixishiy, Abdulla Kotib, Abdulhay Tabib, Nizom Ayrobodiy, Fasixiddin Sohibdoro kabi binokor, naqqos, muxandis, musavvir, sangtarosh, tabib, hattot, bastakor, naychi, g'ijjakchi, chehrakusho-rassom va boshqa kasb-hunar egalarining dovrug'i, shuhrati yetti iqlimga yetgan edi".

Yuqoridagi hikmatlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi xosiyati haqida qomuschi va hadischi olimlar ta'limotlari va qarashlarida yanada rivojlantirildi va takomillashtirildi. Bularni ayniqsa Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Ibn Muso Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Mahmud Qoshg'ariy, Voiz Koshifiy, Al-Farg'oniy, Abu Nasr Al-Farobiy, Alisher Navoiy, Imom Al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshband va shu kabilar asarlarida ko'plab uchratish mumkin.

Juda ko'p manbalarda VIII-XIII asrlarda ma'naviyat va ma'rifat yuksaldi, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Shosh, Bikent, Axsikat, Farg'ona, Quba, Marg'ilon, O'sh, O'zkand, Ushrushona, Xavokand, Xojand, Jend, Urganch, Xiva, Marv, Termiz kabi qator rivoj topgan shaharlar, ulardagi me'moriy yodgorliklar, bozorlar, obodonchilik haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Bu kabi xislatlar IX-XII asrlar – **“Ilk O'yg'onish davri”** da yanada rivojlandi. Ayniqsa dunyoviy ilm bilan diniy ilmning uyg'unlikda olib borilishi bu kabi yo'nalishlarni yuksak cho'qqilarga ko'tarilishiga asosiy poydevor bo'ldi. Bu soha ayniqsa XIV-XV asrlarda, ya'ni **“So'ngi O'yg'onish davri”** da yanada rivojlandi va davlat arboblari ham mazkur sohalarni davlat siyosati darajasigacha olib chiqdi.

Bu borada Ulug' bobomiz Amir Temurning xizmatlarini qayd qilish maqsadga muvofiqdir. U mamlakatning iqtisodiy qudratini isloh qilishga harakat qildi va olimu-fuzalolarni, kosibu-hunarmandlarni o'z himoyasiga oldi. Bu haqda rus olimi A.Yu.Yakubovskiy quyidagilarni yozgan edi: **“U yaxshi hisob-kitoblik xo'jayin edi. U Movarounnahrga nafaqat turli-tuman boyliklarni, balki hunarmand, musavvir, me'mor va olimlarni ham olib keldi. To'g'ri Movarounnahrning o'zi ham mutaxassis va olimlarga boy edi. Lekin fan va madaniyat arboblari, hunarmandlar qancha ko'p bo'lsa, hunarmandchilik, madaniyat, ilm-fan ham shancha tez rivojlanadi”**.

Bu boradagi faoliyat va ularning rivoji, poydevori to'g'risida quyidagi “Tuzuklar” o'zining qimmatli xulosani beradi: **“...Agar kasbu hunar va ma'rifat ahllaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir miskinlar esa o'z ahvoli va kasbu koriga qarab ish tutsinlar. ... Sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarlarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olish uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va rayyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqorodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, unga yordam berilsin”**.

Xullas bizning avlod-ajdodlarimiz ilm-ma'rifatga va kasb-hunarga katta e'tibor berib kelgan. Shu sababli ham “Hunarli kishi xor bo'lmas”, - degan hikmatli so'zlar xalqimiz orasida-iste'molga aylanib ketgan bo'lsa ajab emas. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikri nihoyatda qimmatlidir: “Hozirgi O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat sharq, balki umumjahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ishlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rku fayzini,

mahobatini yo'qotmagan asori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik hunarmandchilik, madaniyat, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvchilarimiz, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi”.

Bizning Mustaqil Davlatimizning kelajagi uchun yangicha intellektual salohiyatiga ega bo'lgan, ya'ni zamonaviy tafakkurga, madaniyatga, ma'rifatga, mehnatga, kasbiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashga mustahkam boy milliy merosimiz, poydevorimiz bor ekan, demak, o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va komil inson qilib tarbiyalash ishini yaxshilash to'g'risidagi olib borilayotgan islohatlarning asosiy yo'nalishlarini, ushbu tizimni ham mazmunan ham shaklan tubdan zamonaviy talablar asosida yangilash zarur ekan. Bu bevosita boshlang'ich ta'lim mutaxassislari yo'nalishidagi o'qituvchilariga ham tegishlidir, chunki yoshlarga kasb-hunarlarini o'rgatish orqali, ularni halol mehnat qilishga, mehnatsevarlikka o'rgatiladi. Bu esa barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir. Sababi buyuk, boy milliy merosga ega bo'lgan xalqimiz o'z taraqqiyotining hech bir bosqichini mehnatsiz ilmsiz, kasb-hunarlersiz tasavvur qilmaydilar. Bu borada bu yerda uzoq o'tmishdan bittagina dalilni keltirish bilan kifoyalanamiz.

“XII-XIII asrning buyuk allomalaridan hisoblangan Sa'diy Sheroziy (1184-1292) “Guliston” asarida tarbiyaning ta'siri bayoniga quyidagicha hikoya keltiradi: **“Bir donishmand farzandlariga pandu nasihat qilardi: Aziz o'g'lonlarim hunar o'rganinglar, zero,ki, molu dunyoga e'tiqod yo'q va oltin kumush safarda xatarlidir. Qaroqchi o'g'irlab ketadi yoki egasi yeb-ichib tamomlaydi. Ammo, hunar qaynar buloq, tugamas davlatdir, agar**

hunarmand molidan maxrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir, hunarmandning o'zi davlatdir. Hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uying to'ridan joy oladi, hunarsiz odam esa hamisha mashaqqad chekadi, tilanchilik qiladi".

Demak, bugungi barkamol avlodimizga xos xususiyatlardan biri bo'lmish intellektual salohiyatli bo'lish va ularning sirlarini egallab olish orqali u bilimni haqiqatga bag'ishlaydi. Bu esa barkamol avlodni halol mehnat qilishga, turli kasb sirlarini ilmiy asosda, ongli ravishda egallash jarayonini takomillashtiradi.

Demak, boshlang'ich ta'lim bo'yicha mutaxassislar o'zining kasbiy faoliyati davomida quyidagi ko'rinishdagi pedagogik muammolarni hal qila olishga erishish kerak:

- ta'limni muntazam rivojlanishi va tarbiyaviyligini ta'minlash;
- ta'limni ijtimoiy foydali mehnat, mehnat va boshlang'ich ta'limining boshqa turlari bilan integrasiyani o'rnatish;
- darsda va darsdan tashqari holatlarda o'quvchilarning bilish va mehnat qobiliyatlarini uyg'un holda olib borish;
- o'z o'quvchilariga aqliy, hissiy, ma'naviy, mehnat, axborotli ta'lim berishda kompleks yondashuv tadqiqot usulini qo'llay olish va shu kabilar.

Shuning bilan birga boshlang'ich ta'lim bo'yicha kasbiy faoliyatni samarali olib borish uchun **quyidagi funksiyalarni** o'zida shakllantirgan bo'lishi kerak:

- ta'limni loyihalashtirish va rejalashtirish; tashkillashtirish;
- ta'lim muhitini axborotlashtirish; ta'limni rivojlantirish;
- ta'lim mazmunini mo'ljallay olish; ta'limga jalb qila olish;
- ta'limga ijobiy yondashish; ta'limni texnik ta'minotini yarata olish va shu kabilar.

Qayd etilgan funksiyalarni o'rganish yoki shu funksiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash o'ta muhim, murakkab muammo bo'lib, uni an'anaviy usul va vositalar bilan hal qilib bo'lmaydi. Bu muammoni hal qilish uchun boshlang'ich ta'limga oid o'quv muassasalari faoliyatidagi har bir funksiyani va

uni shakllantirish uchun ko'plab ma'lumotlarni yig'ib, saralab, qayta ishlab, bir tizimga keltirib ma'lumotlar bazasi (MB) ni tashkil etishga va uni iste'mol uchun tayyorlab axborot ko'rinishiga keltirish kerak, hamda bu axborotlar bo'yicha boshlang'ich ta'limning funksiyalari to'g'risida axborotlar banki (AB) tashkil etish kerak.

Bunday MB va AB ni tashkil etishi Informatika fani yutuqlarisiz hal qilib bo'lmaydi. Bu borada "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ham uzliksiz ta'lim tizimi (UTT) axborot muhitini yaratish va ular bazasida ta'lim jarayonining axborotlar ta'minotini rivojlantirish, hamda ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning tashkiliy-uslubiy negizlarini yaratishlarni asosiy vazifa qilib qo'yilgan.

Bu haqdagi fikrlarmizni yuqorida keltirilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning maqsad va vazifalarida, boshlang'ich ta'lim bo'yicha "Davlat ta'lim standarti» (DTS) da batafsil tasvirlangan.

Mamlakatimizdagi bugungi taraqqiyot darajasiga e'tibor beradigan bo'lsak Respublikamizda axborotlashgan jamiyat qurish yo'lidagi asosiy vazifa axborot maydonining barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish va undagi boshqaruv subyektlari faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish hisoblanadi.

Demak, XXI asrda bo'lajak mutaxassislarga bo'lgan talab fan-texnika va ayniqsa informasion texnologiyalar rivojiga mos ravishda kun sayin o'sib bormoqda.

Shu sababli ham KHT bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash DTS ga qo'shimcha qilib qo'yidagi talablarni qo'yish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqqan holda jamiyat va davlatning zamonaviy talablarini qondirish, ilm-fan, texnika va

texnologiyalarning ilg'or yutuqlaridan kadrlar tayyorlashda uzluksiz va uzviy foydalanishga erishish;

- kelgusida, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar uchun ham javob beradigan kadrlar tayyorlash siyosatining ustivorligiga erishish, ta'limda ijobiy sifat o'zgarishlariga hamda yuqori samaradorlikka erishish borasidagi ilmiy-texnikaviy va informasion ma'lumotlar bazasini yaratish;

- DTS dagi sifat ko'rsatgichiga va samaradorlikka erishishning ilmiy uslublarini ishlab chiqish, bu sohadagi optimal variantlarni tanlashga istiqbolli ilmiy-uslubiy ishlanmalarni tayyorlash zarur;

- ta'lim shakllarini muntazam ravishda optimallashtirish vazifasini har – bir o'qituvchining kundalik kasbiy faoliyatiga aylanmog'i zarur va buning natijasida texnik va inson resurslari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olib, butun o'qitish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish va ularni amaliyotda qo'llash tizimini yaratish va shu kabilar.

Demak, boshlang'ich ta'limga hozirda har qachongidan ham e'tibor kuchaygan va uni zamonaviy talablar asosida faoliyat yuritishga tayyorlash davr talabidir. Ushbu talabni bajarish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

- ta'lim jarayoni o'ziga xos ko'p variantli dinamik jarayondir va uni boshqarish esa yetarli darajadagi ijodkorlikni talab etadi. Bugungi kunda ta'lim metodlari, usullari va texnologiyalari zamon bilan hamnafas bo'lib kengayib bormoqda. Ayniqsa ta'limda axborot texnologiyalarini joriy qilish shu kunning dolzarb va istiqbolli muammolariga aylanmoqda. Bu texnologiyalarni amalda joriy etishda qaralayotgan ta'lim yo'nalishidagi o'quv rejasining fanlar bloklari va ularning aloqadorligini hamda tayanch fanlar bilan integrasiyasi e'tiborga olinsa, mazkur soha bo'yicha istiqbolli pedagogik samaralar qo'lga kiritiladi;

- bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashning axborot texnologiyasini yaratishda quyidagi ketma-ketlikka qat'iy amal qilinishi lozim: talabalarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini oshirishda kompyuterlardan texnik-didaktik

vosita sifatida foydalanish; talabalarga kompyuter o'qitishning universal texnik-didaktik vositasi degan tushunchani berish; talabalarga kompyuterdan foydalanishning jo'shqin munosabatini oshirishni va qiziqishini o'yg'otish; talabalarga kompyuterda ishlash bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning optimal yo'llarini topishga erishish;

- ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish innovasion uslublarini ishlab chiqish va undan amalda foydalanishga imkoniyat yaratadi va bunda ta'lim tizimiga sezilarli samaralar beruvchi yangilik kiritiladi.

Maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni muayyan kasbni egallashga yo'naltirilgan bo'lajak kichik mutaxassislar tayyorlashning asosiy maqsadi – bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlari va mahorati hamda ko'nikmalarini muntazam ravishda shakllantirishda zamonaviy mehnat bozori, shaxs, davlat va jamiyatning dinamik ravishda o'sib boruvchi ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutaxassislar tayyorlash dinamikasini ta'minlashdan iborat. Bunda boshlang'ich ta'limdagi o'qituvchining kasbiy intellektual salohiyati, o'quv-metodik-axborotli ta'minot, kasbiy bilimlarni oshirish manbalari, ta'lim muassasasida ijodiy muhitning mavjudligi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning ma'naviy kamolot darajalarining yetarliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida ular to'g'risida konseptual ketma-ketlikni keltiramiz:

I. O'qituvchining kasbiy intellektual salohiyatiga qo'yilgan talablar:

- o'qituvchining tayyorlayotgan mutaxassislar o'rganishi lozim bo'lgan fanlar asoslari bilan tanishligi va ular bo'yicha egallagan bilimlarini o'zi o'qiydigan fanni bayon qilishda samarali foydalana olish malakasiga ega bo'lishi lozim, chunki bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda o'qitiladigan fan o'sha mutaxassis mazmun-mohiyati bilan hamohang bo'lmog'i lozim;

- o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar (ZPT) asoslarini, ayniqsa o'zi o'qitadigan fan bo'yicha innovasion uslublarni joriy eta olishlik ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim;

- zamonaviy ta'lim muassasasining o'qituvchisi o'zining pedagogik qobiliyati va mahoratini dinamik ravishda oshirib borishni doimiy odatga aylantirmog'i lozim;

- muntazam ravishda jamiyatimizdagi va davlatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlardan xabardor bo'lmog'i lozim;

- xorijiy tillardan xabardorligi;

- turli ishga tegishli hujjatlarni puxta o'zlashtirgan bo'lishi va ularni rasmiylashtira olish ko'nikmalariga ega bo'lish kerak;

- o'qituvchi mutaxassislik fanlari bo'yicha darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar va slaydlar yarata olish malakasiga ega bo'lishligi hamda fan bo'yicha keyingi yangiliklar hamda ularning zamonaviy ishlab chiqarishdagi ahamiyatlari haqida mukammal bilimga ega bo'lish kerak;

- o'qituvchi o'zi o'qiyotgan fanining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi o'rnini aniq baholay bilishi kerak va bo'lajak mutaxassislikni egallashdagi, ya'ni ta'lim dasturidagi ulushini aniq bilmog'i lozim.

II. O'quv-metodik-axborotli ta'minotga qo'yilgan talablar:

- DTSlar, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha me'yoriy hujjatlar: o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, o'quv dasturlari, ishchi o'quv dasturlar, taqvimiy o'quv rejalari, ma'ruzalar matni va kurs ishi tayyorlashga bo'lgan talablar, tarqatma materiallardan amaliy faoliyatda foydalanishga qulay bo'lishligiga qo'yilgan talablar va shu kabilarning mavjudligi;

- ZPT va innavasion ta'lim texnologiyalari hamda zamonaviy axborot texnologiyalari (ZAT) asoslari bilan zamonaviy boshlang'ich ta'limning ta'minlanganligi;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kompyuter savodxonligini to'liq egallashi negizida axborot madaniyati shakllanishi uchun va ularni og'ishmay o'quv jarayoniga tadbiiq eta olish uchun o'quv muassasi qoshida maxsus uslubiy markazni faoliyatini tashkil etish va uyushtirish;

- elektron o'quv adabiyotlar: elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, o'qitiladigan fan bo'yicha elektron portfel va elektron qomusiy lug'at kabilarni tayyorlash va ulardan amaliy faoliyatda foydalana olish metodikalarini tayyorlash;

- elektron o'quv adabiyotlarni yarata olish malakasiga ega bo'lgan intellektual salohiyatli o'qituvchilarni ta'lim muassasasi qoshidagi innovasion ta'lim texnologiyalarini yaratish bo'yicha uslubiy kengash ishiga ko'proq jalb etish;

- fanlarni axborot-kommunikasion texnologiyalar (AKT)ni qo'llash orqali o'rganish metodikalarini tayyorlash;

- kompyuter savodxonligi darajalarini zamon talabi darajasida muntazam ravishda takomillashtirib borishga erishish, chunki AKT bo'yicha yangiliklar kun sayin o'sib bormoqda;

- interfaol metodlar va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishga «Didaktik portfel» tizimini tayyorlashga erishish;

- INTERNET dan foydalanib ta'lim muassasasidagi fanlarga tegishli materiallarni to'planishi va ulardan foydalana olish malakalarini beruvchi to'plamlarni tashkil qilish.

III. Kasbiy bilimlarni oshirib borishga qo'yilgan talablar:

- tayanch mutaxassisligi bo'yicha bilimlarni uzluksiz ravishda oshirib borish;

- tayanch mutaxassislikka tegishli bilimlarni boyitish vositalaridan samarali foydalanishga erishish;

- tayanch mutaxassislikka tegishli yangi ma'lumotlarni INTERNET tarmog'idan olishga erishish va olingan yangi adabiyotlar va axborotlarni mustaqil ravishda tahlil qila olish hamda ulardan kasbiy faoliyatda keng foydalanishga erishish;

- pedagogik-psixologik va axborot-kommunikasion texnologiyalarga oid adabiyotlar bilan muntazam ravishda tanishib borish va ulardan amaliy-kasbiy faoliyatda foydalanishni og'ishmay amalga oshirib borish;

- tayanch mutaxassisliklarga tegishli direktiv hujjatlarni chuqur o'rganish va ulardan bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashda ongli ravishda foydalanish va shu kabilar.

IV. Ijodiy faoliyat yo'nalishiga qo'yilgan talablar:

- tayanch mutaxassislikka oid dolzarb muammolar nimalardan iborat ekanligini anglab yetish va shu asosida bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlash ishlari bo'yicha rostlash (regulirovka) ishlarini amalga oshirish;

- tayanch mutaxassislikka tegishli fanlarni o'qitishni takomillashtirishga oid ilmiy-uslubiy ishlarni muntazam ravishda amalga oshirib borish lozim. Bunga sabab ta'lim jarayoni o'ziga xos jamiyat taraqqiyoti bilan uyg'un holda rivojlanib, takomillashib boruvchi dinamik tizimdir;

- ilmiy, ilmiy-uslubiy, innovasion loyihalar bilan tanlovlarda qatnashish va ularni bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlanishga keng joriy etish borasida muntazam ravishda ijodiy faoliyat yuritish lozim.

V. Ma'naviy kamolot darajasini rivojlantirishga qo'yilgan talablar:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida barkamollikka intilish tuyg'ularini shakllantirish;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy yetuklik sari intilish tuyg'ularini tarbiyalash;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi ta'lim dasturidagi fanlar bo'yicha va ularga tegishli ma'lumotlarni vaqti matbuotdan muntazam ravishda foydalanish orqali amalga oshirishga erishish;

- bo'lajak mutaxassislarning yangi badiiy va kasbiy adabiyotlar bilan muntazam ravishda tanishib borishida axborot resurs markazlaridan samarali foydalanishga erishish;

- kasbiy ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy jihatlar bilan tarbiyalangan bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashni amalga oshirish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha ommaviy-tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishning mukammal rejasini ishlab chiqish va ularni olib borishning innovasion uslublarini yaratish bilan qiziqish va shu kabilar.

1.2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning pedagogik – psixologik jihatlarini

Mamlakatimizning hozirgi kundagi taraqqiyoti va kelajagi ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga innovasion texnologiyani kiritish bilan belgilanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubda olib borishga yo'l qo'ymaydi. Shu sababli ham hozirda pedagogik innovasiyani yaxlit murakkab dinamik jarayon sifatida qaralib, uning interfaol sifatleri, tarbiyaviy qismlari, funksional tavsifi va uzviyligi izchil tadqiq qilinmoqda. Bu Respublikamizda bozor munosabatlarning shakllanish, zamonaviy ishlab chiqarish sohasida raqobatning kuchayishi, malakali mutaxassislariga bo'lgan talabning tobora kuchayib borishi UTT ning barcha tarkibiy qismlarida o'quvchilarga muayyan kasb-hunarga oid chuqur bilim berish, kasbiy amaliy faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish ko'nikma va malakalarini tarbiyalashda yaqqol sezilmoqda. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida yuzaga kelgan zamonaviy boshlang'ich ta'lim muassasalari mehnat bozorida malakali kadrlarga bo'lgan **ijtimoiy ehtiyojning** qondirilishini ta'minlaydigan o'quv muassasasi hisoblanadi. Shu bois davlatimiz tomonidan boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va shu soha uchun malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Demak, boshlang'ich ta'limni yangi bosqichda jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish, ta'lim jarayonining ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik muammolarini hal qilish, qolaversa, bo'lajak kichik mutaxassislarni amaliy faoliyatda muvaffaqiyat bilan ishlay oladigan darajada tayyorlashdek vazifa turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Ilm – ziyo salohiyati – yurt boyligi" nomli mavzusidagi ma'ruzasida yoshlarimizni zamonaviy va ilg'or uslublar bilan o'qitish, ularni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yuqori malakali mutaxassislari bo'lishiga qayg'urish har birimizning muqaddas burchimiz ekanligini va bunday Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi saviyasini jahon andozalari talablari darajasigacha ko'tarish har qachongidan ham dolzarb ekanligini qayd etgan. Bugungi kunda har bir zamonaviy ta'lim muassasasi oldida **ijtimoiy istiqbol talablarini** e'tiborga olib axborotlashtirilgan ta'lim muhitini yaratish va rivojlantirish bilan bog'liq murakkab va ko'p qirrali vazifa turibdi. Bunda ta'lim jarayonida axborot – kommunikasion texnologiyalarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish masalasi birinchi navbatda hal etilishi lozim bo'lgan masala hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatori Respublikamizda ham kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30-maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 23-maydagi "2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2002 yil 6-iyundagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari asosida Respublikani 2010 yilga qadar axborotlashtirishni qayta qurishning ilmiy dasturlari va telekommunikasiya tarmoqlarini rivojlantirishning me'yoriy huquqiy asoslari yaratildi. Shu sababli, uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim muassasalari axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali kichik mutaxassislar bilan ta'minlashning **zaruriy resursi** mexanizmiga aylandi.

Hozirgi paytda boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikasion texnologiyalarni joriy etish jadal sur'atlarda amalga oshmoqda. Kompyuter auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv mashg'ulotlarida o'quv ishlarini

bajarilishini ta'minlovchi universal didaktik qurilma hisoblanadi. Bu esa, boshlang'ich ta'lim ishini tashkil etishga an'anaviy yondashuvlar va foydalaniladigan ta'lim texnologiyalarini qayta qurib chiqish zarurligini keltirib chiqaruvchi, ular ish faoliyati sharoitidagi global o'zgarishlarga olib keladi. Bu davr taqozasi hamdir. Bunga sabab AKT dan foydalanish sharoitida kompyuter texnikasining mavjud dasturiy va texnik ta'minotini doimiy ravishda modernizatsiyalash, o'quv jarayoniga AKT ni yaratish va undan amaliy faoliyatda foydalanish sohasida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va mutaxassislari malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini boshqarishni takomillashtirish imkonini beruvchi axborotlashtirilgan ta'lim muhiti (ATM) ni mazmunli va texnologik jihatdan rivojlantirish hisoblanadi.

- Mustaqil Respublikamiz xalq xo'jaligining nazariy negizini tashkil etuvchi ilm-fanni va texnika – texnologiyalarni taraqqiy ettirishda jamiyatimiz har bir a'zosining tashabbuskor, g'ayratli, fidoiy, qobiliyatli, iste'dodli, bilimli, ijodkor va eng asosiysi axborot madaniyatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimini ushbu talablar darajasida isloh qilish ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan axborot-kommunikasion texnologiyalar tizimini keskin takomillashtirishni talab etadi. Bunday talablarni e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya berish ham hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir. Bu vazifa bevosita zamonaviy ishlab chiqarish uchun bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlovchi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga muhim vazifalarni yuklaydilar.

Buning natijasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da qayd etilgan yuqori malakali, jahon ta'limi talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga erishiladi. Albatta, bu zaruriy ketma-ketlikni joriy etish borasida keng miqyosda katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi mumkin va ularga o'z sohalarining mutaxassis va olimlarini jalb etib, hamkorlikdagi faoliyatni olib borishga to'g'ri keladi. Bu sohada o'z yechimini kutayotgan qator **dolzarb muammolar** bor. Biz ularni quyidagicha ifodalashni lozim topdik:

- Boshlang'ich ta'limni tizimini axborotlashtirish va uning darajasida ta'lim – tarbiya jarayonini olib borishning optimal variantlarini yaratish va joriy etish. **Bunda** tadqiqot mavzusiga oid ilmiy va ilmiy – uslubiy manbalarni tahlil etish asosida psixologik – pedagogik nuqtai nazardan ATM tashkiliy – tuzilmasini, uni shakllantirish asosini tashkil etuvchi metodik tamoyillar va yondashuvlar tizimini hamda bo'lajak mutaxassislar tayyorlash jarayonini takomillashtirishda uning rolini asoslash lozim buladi;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar negizida ta'lim – tarbiya jarayonini olib borishni kompyuterlashtirishga erishishning ilmiy – pedagogik asoslarini yaratish;

- ta'lim – tarbiya tizimida an'anaviylik va innovasiyadagi umumiylik va xususiylikni farqlay olish hamda ulardan foydalanishning optimal variantlarini yaratish;

- bo'lajak mutaxassislarda shakllanadigan innovasion xislatlarning bo'lajak mutaxassislar amaliy faoliyatiga mosligi va undan foydalanishga mos uslubiy tavsiyalar tizimlarini ishlab chiqish;

- boshlang'ich ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini joriy etishning tashkiliy – uslubiy negizlarini yaratish;

- pedagogik innovasiyalar ishlab chiqish va joriy etish markazlarini tashkillashtirish;

- ta'lim – tarbiya jarayonida “Kompleks yondashuv”, “Tizimiy yondashuv” kabi tadqiqot usullaridan foydalanish metodologiyasini yaratish va qaralayotgan jarayonning kerakli qismini kibernetik tizim sifatida qarab, uni “harakatchan modellar” orqali boshqarishga erishish;

- ta'lim – tarbiya jarayonida olib boriladigan innovasion ta'lim texnologiyalarini “Fan – ta'lim amaliyot” integrasiyasi asosida yaratish;

Demak, zamonaviy bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ATM asosida tayyorlash UTT dagi **dolzarb va istiqbolli ijtimoiy muammo ekan**. Bunda **innovasion ta'lim texnologiyalari** keng qamrovli, ko'p qirrali, murakkab va

ijodiy tashkiliy – pedagogik faoliyat ekanligini doimo diqqat markazimizda bo'lishi kerak. **Bunga sabab** ular yordamida ta'lim – tarbiya jarayonining istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish mumkin hamda ular asosida raqobatbardosh zamonaviy kichik mutaxassislarni tayyorlash kafolatlanadi. Mazkur ishimizning keyingi qismlarida ular haqidagi ma'lumotlarni keltiramiz.

1.3. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitining pedagogik jihatlari

Bugungi kunda zamonaviy kasb-hunar kollejlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalasi ularning zamonaviy ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyalari bilan ishlay olishi va tor doiradagi ixtisosliklardan voz kechish, ularning mustaqil va ijodiy faoliyat yurita olishi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda hal qilinishi zarur. Bu boshlang'ich ta'lim, tarkibiga yangi o'quv fanlarini kiritish, eskirgan o'quv materiallarini mazkur fan o'quv dasturi tarkibidan chiqarib tashlash, biri ikkinchisini tuldiruvchi, kengaytiruvchi va chuqurlashtiruvchi, mazmunan aloqador hamda tutash o'quv fanlarini **integrasiyalashtirish**, ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini keng miqiyosda ta'lim - tarbiya jarayoniga joriy qilishni taqazo etadi.

O'quv fanlarini **integrasiyalashtirish** masalasini hal etish esa yangi ta'lim tizimi ya'ni, ta'lim makonini yaratish masalasi bilan uzviy ravishda bog'liq.

“Makon” va “Muhit” tushunchalari mazmun va mohiyat jihatdan bir-biriga juda yaqin, lekin sinonim emas. “Makon” keng ma'noda bir vaqtda mavjud bo'lgan obyektlarning muayyan tartibi va unda inson ishtiroki shartdir. Bunga sabab “Makon” insonga bog'liq bulmagan holda ham mavjud bo'lishi mumkin. “Muxit” tushunchasi esa inson rivojini ta'minlovchi shart- sharoitlar tizimidan iboratdir. “Muhit” da insonning ishtirok etishi zarur. Bunga sabab unda inson atrof-muhit bilan faol hatti-harakatda bo'ladi.

Ta'lim makonini xuddi shuningdek, ta'lim tizimi sifatida ham aniqlanish mumkinligi haqida ham fikrlar mavjud. Ta'lim makonini bunday tushunish quyidagilarga asoslanadi:

- ta'lim makoni aniqlangan va faqat ta'lim jarayoni ichida mavjud bo'ladi;
- qattiy jadval asosida amalga oshiriladi;
- o'quv jarayonining muhim va tugallangan tarkibiy qismi xisoblanadi;

- muayyan didaktik masalalarni hal etadi;
- ta'lim tizimi uchun xarakterli bo'lgan bir qator belgilarga ega.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda ta'lim makoni- deganda biz ta'lim tizimida biror bir qonuniyatga buysinuvchi va muayyan tartibda bir-biri bilan bog'langan o'quv yurtlari majmuasini tushunamiz.

Bizning nuqtai nazarimizda ta'lim muhiti bu o'quv jarayonini tashkil etishning fanlararo alokadorlik, integrativ kurslar kabi innovasion shakliga xuddi shuningdek, o'quv predmet sifatida an'anaviy, klassik shakliga munosabati bo'yicha izchillikni saqlovchi ta'limni tashkil etishning sifat jihatdan yangi tarixiy va mantiqiy darajasi.

Ta'lim muhiti zamonaviy pedagogikadagi muhim muammolardan biri, ya'ni ta'lim, fan va madaniyat bog'liqligi xaqidagi masalani hal etishga konstruktiv javob bo'lib hisoblanadi.

Ushbu muammoni hal etish zamonaviy pedagogikaning bugungi kunda quydagi 3 ta eng muhim yo'nalishlarda olib borilmokda.

- ta'limni madaniyatga hamohang tizim sifatida tushunish;
- bilib borishdan shaxsga yunaltirilgan ta'lim paradigmasiga o'tish;
- pedagogikaning umummetodik madaniyatini oshirish, empirik va nazariy aloqasini differensiyalash.

Bu uchta yo'nalish o'z ichida pedagogik fikrlash rivojining yangi bosqichini xarakterlaydi. Ular yangi zamonaviy pedagogik madaniyatni rivojlantiradi va boyitadi, gumanistik pedagogikaning paradigmal asoslarining tarixiy rivojiga muxim xissa qo'shadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda ta'lim makoni va ta'lim muhiti tushunchalari ta'limni shaxsga yo'naltirish tamoyili bilan o'zviy bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Bilim berish jarayonining mantiqiy ketma-ketligi bilan muvofiqlashuvchi ta'lim strategiyasi orqali aniqlanadigan yaxlitlikda;

* o'quv yurtida oriyentatsiyalash ilmiy asoslangan bilimlar tizimini shakllantirish, integrasiya –umumlashtirish va nihoyat yangi yaxlit bilimlarni egallash bosqichlari mavudligini taqozo etuvchi ta'lim jarayonini qurishning umumiy mantig'i;

* bilimlarni lavha ko'rinishda taqdim etishdan voz kechish va umumiy g'oyalar buyicha birlashtirilgan fanlar bloklari va modullarga o'tishdan iborat ta'lim dasturlarini konstruksiyalash mantig'i;

* dastlab yaxlit ko'rinishda qaraladigan so'ngra uni tashkil etuvchi elementlarga ajraladigan va natijada yana yangi mazmunda integrasiya-lashadigan aniq mazmuni o'rganish mantig'i;

2. Maxsuldor va erkin shaxs rivojini ta'minlovchi yaxlit ta'lim makonini tashkil etish va fanlararo bilimlar sintezi orqali aniqlanuvchi integrativlikda;

3. Hodisa va jarayonlarni turli xil nuqtai nazardan tushunish va o'rganishni taqazo etuvchi ko'p jihatlilikda;

4. O'quvchilarga yangi bilimlarni uzlashtirish va qayta ishlash, nostandart masalalarni yechish va boshqa shu kabilarning unversal usullarini taqdim etishni ta'minlovchi universallikda;

5. O'quvchilarga o'z extiyojlari va maqsadlariga mos xolda ta'lim mazmunini va uni egallash usullarini mustaqil tanlashga imkon beruvchi keng ko'lamlilikda. Chunki, insonparvarlashgan ta'lim muxitining bunday keng ko'lamligi ta'limga texnologik yondoshuvga nisbatan yaqqol gumanitar xarakterni o'zida aks ettirgan ta'limning variativligini hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun shart - sharoit yaratadi. Ammo, ta'lim muhitining keng kulamliligi bevosita o'qitish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan omillar va shartlar tizimi mavjudligini taqazo etadi;

6. O'quvchining shaxsiy ta'limiy ehtiyojiga bog'liq holda ta'lim muhitini kengaytirishga imkon beruvchi uning ochiqligida;

7. Bilimlarni translyasiyalash jarayonida barcha ta'lim muhiti maydonlarini birlashtiruvchi til sifatida – lingvistik yunalganligida.

Ushbu qayd etilgan xususiyatlar ta'lim muhiti modelini yaratishda asoslanish mumkin bo'lgan quyidagi tamoyillarni aniqlash imkonini beradi.

I. Modelning yaxlitlik tamoyili. Bu tamoyil o'quv yurtida ta'lim muhitini shakllantirishga yaxlit xodisa sifatida, xuddi shuningdek o'quvchilarning borliqni yaxlit idrok etish uchun sharoit yaratishning buysinuvchi masalasi sifatida umumiy yondoshuvlarni tanlashda muhim rol o'ynaydi. Bu esa o'z navbatida quyidagi turtta blokka birlashuvchi ta'lim muhitining o'zaro bir-biri bilan bog'langan komponentlari (qismlari) ni aniqlashga imkon beradi.

1- maqsadli blok. Urganilayotgan jixatiga kura ahamiyatli bo'lgan maqsadlar majmuasini o'z ichiga oladi.

2- dasturli –strategik blok. Bu blok mumkin bo'lgan strategiya, shakl va tayyorgarlik dasturiga nisbatan zaruriy axborotlarni o'z ichiga oladi.

3- axborotli bilimlar bloki. O'quvchida shaxsiy axamiyatga ega bo'lgan bilimlar tizimini shakllantirish uchun zarur bo'lgan tula yoki qisman strukturalashgan ta'lim axborotini o'z ichiga oladi. Bu axborotlar o'quvchiga chop etilgan darslik, o'quv qullanma, o'quv materialini mustaqil o'rganish buyicha uslubiy kursatmalar, ilmiy, ilmiy-amaliy, badiiy adabiyotlar va boshqalar ko'rinishida va turli xil kompyuter dasturlari ko'rinishida tag'dim etilishi mumkin. Taxlil etish va taqqoslash orqali ta'lim fundamentalligini ta'minlovchi dastlabki manbalar mavjudligi bunda asosiy rol o'ynaydi.

4-texnologik blok. Axborotli o'qitish muhitida (masalan yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishda) foydalaniladigan o'qitish vositalari tizimini o'z ichiga olgan.

Har bir blok faqat inson ichki kuchlarini yoyishga yunaltirilgan ta'lim jarayonining yaxlitligi xaqidagi tasavvurlar beruvchi mos axborotlarni saqlamasdan, balki u mos bloklarning rivoji xaqidagi axborotlarni ham o'zida saqlaydi va faqat shunday xoldagina bu tamoyilga asoslangan ta'lim muhitining taqdim etilgan modeli o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatli bo'ladi.

II. Ko'p jihatlilik tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra ta'lim muhitining har bir komponentasi o'quvchilarda ta'lim jarayonini yaxlit, xuddi shuningdek o'rganilayotgan ta'lim sohasi mazmuni sifatida qarashga turlicha yondashuv mumkinligi xaqidagi tula tasavvurni yaratish uchun zarur bo'lgan yetarli darajada keng spektrli axborotlarni saqlashi zarurligi taqozo etiladi.

III. Keragidan ortiqchalik tamoyili. Bu tamoyilga kura ta'lim muhiti modelining ixtiyoriy komponentasida o'quvchi o'z amaliy faoliyatida duch keladigan real vazifalarni modellashtirishda foydalaniladigan keragidan ortiqcha axborotlar joylashgan bulishi lozim. Bu esa, o'quvchiga uning oldiga kuyilgan masalasini xal etishda zaruriy axborotlarni topish uchun asos yaratadi.

IV. Maksimal qamrab olish tamoyili. Bu tamoyilga kura ta'lim muxitini shakllantirish bevosita ukitish jarayoni bilan bog'liq bulgan shaxsiy ta'limiy qiziqishni o'z ichiga olmasdan balki, bevosita o'quv fooliyatidan tashqarida bulgan keng ko'lamdagi qiziqishlarni xam qamrab oladi. Bunday tamoyil asosida quriladigan ta'lim muxiti modeli quyidagi ikkita qatlamga ajratilgan bo'lishi lozim.

-o'quv yurti atmosferasini aniklaydigan va o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydigan fon;

-o'qitish jarayoniga bevosita kiruvchi dastlabki reja tuzilmasi.

Y. Lingvistik yunalganlik tamoyili. Ushbu tamoyil ta'lim muhiti modelini qurishda uchunchi ya'ni, lingvistik muxit mavjudligini kursatadi.

Yuqorida qayd etilganlardan ta'lim muhiti modeli quyidagi tuzilmalarni o'z ichiga olish aniqlandi:

- 1) o'qitish muhiti (dastlabki reja tuzilmasi);
- 2) o'quv faoliyatidan tashqaridagi muhit;
- 3) lingvistik (fonli) muhit.

Bu tuzilmalarning barchasi ochiq, lekin dastlabki reja tuzilmasi ya'ni, o'quv yurti, uning tashkiliy tuzilmasi, material-texnik imkoniyatlari nuqtai nazaridan bir muncha yopiq hisoblanadi.

Bunday tuzilmaga ega bo'lgan ta'lim modeli quyidagi asosiy **funksiyalarni** amalga oshirishga imkon beradi:

-ta'lim muhiting yaxlitlik va universallik xususiyatlari bilan bog'langan integrativlik funksiyasi;

-ta'lim muhiting yaxlitlik va universallik xususiyatlari bilan bog'langan fundamentallashtirish funksiyasi;

-ta'lim muhiting kup jihatlilik va keragidan ortiqcha xususiyatlari bilan bog'langan hamda keragidan ortiqchalarni keng tasvirlashni ta'minlovchi va hamma vaqt turli xil axborotlar tizimini kengaytiruvchi kengaytiruvchanlik funksiyasi;

-ta'limda tilning muhim rolini ko'rsatuvchi lingvo-yo'naltirilganlik funksiyasi.

Bugungi intellektual salohiyat uchinchi ming yillikning birinchi asrini «intellektual asr» deb atashni taqozo etayapti, chunki XXI asr jahonda fan-texnika rivoji misli ko'rilmagan darajada tezkor rivojlanish asri bo'lmoqda. Bunda ta'lim-tarbiya, fan, san'at, adabiyot, sanoat, ishlab chiqarishni hamda ma'naviyatni ham axborotlashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki axborotlashtirishni XX asrning so'nggi o'n yilligida butun kishilik jamiyati rivojlanish resursi deb tan olindi. Bunday fikrni bildirishga olimlarimiz tomonidan oldindan qilingan

bashoratomuz fikrlar ham mavjud edi. Xususan bu borada akademik V.M. Glushkovning quyidagi fikri ham ahamiyatlidir: **“XXI asrda texnik rivojlangan davlatlarda axborotlarning asosiy qismi qog’ozsiz –EHM xotirasida saqlanadi. XXI asr boshlarida ushbu axborotlardan foydalana olmagan kishi XX asr boshidagi o’qishni bilmaydigan kishiga o’xshab qoladi”** [6].

Bugungi kunda dunyo miqyosida sodir bo’layotgan voqeya va hodisalar chuqur tahlil qilinsa insoniyat hayotini farovonlik sari yaxshilashlarga harakat qilishda ta’lim-tarbiya tizimini zamonaviy talablar asosida mukammallashtirishni amalga oshirib kadrlar tayyorlashga erishish muhim muammo ekanligi sezilmoqda. Bunday muammoni hal qilish esa ta’lim tizimini zamon talabi, ya’ni ilg’or, rivojlangan mamlakatlar ta’lim standartlari va dasturlari asosidagi kadrlar tayyorlashga erishish orqali hal qilish mumkin bo’ladi.

Ushbu yo’nalishdagi davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish ko’p jihatdan uzluksiz ta’lim tizimini amalda qay darajada olib borayotganimizga bog’liq. Bu borada hozirgi kunda ham ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun Respublikamizda yetarli ilmiy-metodik baza vujudga kltirildi, ya’ni Davlat ta’lim tsandartlari, o’quv rejalarining ikkinchi avlodi O’zR Vazirlar mahkamasining 343-qarori bilan tasdiqlandi va konkret yo’nalish va ixtisosliklar bo’yicha yaratilgan DTS va o’quv rejaları Oliy va O’rta maxsus ta’lim Vazirligi tomonidan 54-buyruq bilan tasdiqlandi, hamda ta’lim jarayoniga tadbiiq etilmoqda. Demak, ta’lim tizimini yangi bosqichga jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish, ta’lim jarayonining ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik muammolarini hal qilish vazifasi turibdi. Bu esa pedagogik ta’limni modernizasiya qilish lozimligini ta’kidlamoqda. Shu fikrni amalga oshirishda UTT ning ahamiyati katta va roli beqiyosdir. Ushbu sohadagi olib borilayotgan izchil kuzatuvlar va bu sohaga qo’yilayotgan jahon ta’limi hamda hukumatimiz siysatining talablari ham yuqorida qayd etilgan modernizasiyalash zarurligini ko’rsatmoqda va biz ushbu sohadagi izlanishlarimiz natijalarining taqlillarining natijalarini e’tiborga olib uni quyidagi yo’nalishlarda olib borgan ma’qul deb hisobladik:

- pedagogik ta'limni modernizatsiyalash konsepsiyasini ishlab chiqish;
- pedagogik kadrlar tayyorlash strukturasi modernizatsiyalash;
- pedagogik kadrlar tayyorlashning metodologik asoslarini modernizatsiyalash;
- pedagogik kadrlar malikasini oshirishning metodi, vositasi, shakli, yo'nalishi va mazmunini modernizatsiyalash;
- o'quv –metodik ta'minotni modernizatsiyalash;
- pedagogik ta'limni mutaxassislar bilan ta'minlash tizimini modernizatsiyalash.

Ushbu jarayon bevosita UTT negizida tayyorlanadi va bu o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-o'unar ta'limi, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limga to'liq tegishli bo'lib UTT har bir bug'ini uchun taalluqlidir.

Ma'lumki, kishilik jamiyati o'sha jamiyatdagi intellektual salohiyat va kasb-hunar madaniyatiga bog'liqdir. Shuning bilan birga kasb-hunar inson tafakkurini kengaytiradi va o'z navbatida inson hayoti ravnaqiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Bu borada kishilik jamiyati madaniyati va taraqqiyoti, insondagi yashirin imkoniyatlar, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tashabbuskorlikda voyaga yetib kelayotgan yoshlarning bugungi hayotdagi faol ishtirokiga bog'liq. Bunga mamlakatimizda tashkil etilgan yangi ta'lim tizimi keng imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ayniqsa, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim oluvchilar shaxsini ijtimoiylashtirish va kasbga yo'naltirish va ulardagi axborotlashtirilgan ta'lim muhitini yaratish jabhalarini tashkil etish va boshlang'ich ta'limni butunlay yangicha asoslarga qurish vazifalari sezilarli darajada kengaytirildi.

Demak, bugungi barkamol avlodimiz intellektual salohiyatli bo'lish bilan birga zamonaviy kasb-hunar egasi ham bo'lmog'i lozim ekan. Bu esa barkamol avlodni turli kasb sirlarini ilmiy asosda va ongli ravishda egallash jarayonini takomillashtirish zaruratini tug'diradi.

Ushbu sohadagi izlanishlar va ularning natijalari bunday muhim muammo yechimlarini topishda qator omillarga e'tibor berish lozimligini ta'kidlamogda. Ular:

1. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha tarixiy-ma'naviy mustahkam poydevoriga.
2. Boshlang'ich ta'limni egallashning ilmiy-nazariy asoslariga.
3. Boshlang'ich ta'limning taraqqiyot bosqichlari va ularga mos ravishdagi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasiga.
4. Boshlang'ich ta'limni olib boruvchi mutaxassis-o'qituvchilar va ularning intellektual salohiyatiga.
5. Boshlang'ich ta'lim mutaxassis-o'qituvchilarining zamonaviy ilm-fan va texnika- texnologiyalarning yutuqlaridan xabardorligi va ulardan o'z kasbiy faoliyatlarida oqilona foydalana olish qobiliyatlari va shu kabilar.

Bu qayd etilgan omillar borasida mustahkam poydevor (1-omil), tarixiy ilmiy-nazariy asoslar (2-omil), boshlang'ich ta'lim sohasidagi har bir davrning o'ziga xos talablari, urf-odatlar, an'analari va ulardagi sharqona "Ustoz-shogird" tizimida amal qilinadigan ahloqiy me'yoriy bilim, ko'nikma va malakalar asosida shakllantirib kelingan (3-omil).

Boshlang'ich ta'limda faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassis-o'qituvchilarni va murabbiylarni zamonaviy ta'lim talablari asosida tayyorlash va ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish ham o'z davrining dolzarb muammosi bo'lib kelaveradi. Shuning bilan boshlang'ich ta'limga nafaqat Respublikamizda, balki dunyo mamlakatlarining hammasida ham e'tibor beriilib kelinadi va ularning shakli, yo'nalishi, vositasi va usullari o'sha davlatdagi kishilar yashash tarzi va taraqqiyot bosqichlariga qarab belgilanadi.

Yuqorida qayd etilgan 4 va 5 omillardagi talablarga e'tibor beradigan bo'lsak ular boshlang'ich ta'limning yaqin kelajakdagi istiqbolini va mazmunini belgilashga asosiy omillar bo'lib hisoblanadi. Bu boshlang'ich ta'limda ham pedagogik ta'limni moderenizasiyalash lozimligini, ya'ni uning mazmuni, shakli,

usullari, omillari va nihoyat bu jarayonning ATMni yaratishdek dolzarb muammolarini tadqiqotchi-pedagoglar oldiga qo'moqda.

Unda atrof-muhitdagi zamonaviy ishlab chiqarishning ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlanganligi va fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan samarali foydalanayotganligiga e'tibor berilmog'i lozim. Bu bilan yuqorida qayd etilgan 4-omilda belgilangan ijodiy guruh yoki mutaxassis hamda murabbiylarni shakllantirish mumkin.

Umuman olganda boshlang'ich ta'limdagi bunday ijtimoiy faollik o'z yo'nalishi bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni amaliy hayotga tayyorgarligini va ayniqsa o'z egallamoqchi bo'lgan kasb bo'yicha axborotlar bazasi bilan qurollanganligida namoyon bo'ladi va ular quyidagi pedagogik muammolarni hal qilish jarayonida yaqqol seziladi:

- ta'limni rivojlanishi va unda tarbiyaviylikni ta'minlash;
- ta'limni ijtimoiy foydali mehnat va boshlang'ich ta'limning boshqa zamonaviy turlari bilan integrasiyasini o'rnata olish;
- darsda va darsdan tashqari holatlarda o'quvchilarning bilish va kasbiy mehnat qobiliyatlarini uyg'un holda olib borish;
- o'quvchilarga aqliy, hissiy, ma'naviy, mehnat, axborotli ta'lim berishda kompleks yondashuv tadqiqot usulini qo'llay olish;
- kasbiy faoliyatni egallashda o'qituvchida quyidagi funksional vazifalar samarali ravishda amalga oshirilmog'i lozim: ta'limni loyihalashtirish va rejalashtirish hamda takomillashtirish; ta'lim muhitini axborotlashtirish; ta'limni rivojlantirish; ta'lim mazmunini muo'ljallay olish; ta'limga jalb qila olish; ta'limga ijodiy yonlashuv; ta'limni texnik va axborotli ta'minotini yarata olish va h.k.

Ushbu jarayonlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, boshlang'ich ta'limdagi har bir o'qituvchi yoki boshqa mutaxassisni jarayonga mos va xos ko'plab katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga to'g'ri keladi. Buning uchun zaruriy

ma'lumotlar to'plash, saralash (tizimlashtirish), qayta ishlash hamda muammo maqsadiga mos bir tizimga keltirib, ulardan ma'lumotlar bazasini tashkil etishga va uni iste'mol uchun tayyorlab axborot ko'rinishiga keltirish kerak. Bu axborotlar bo'yicha bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi funksiyalari bo'yicha axborotlar bankini tashkil etish kerak bo'ladi.

Bu borada "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham UTT ning axborot muhitini yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari va axborot-kommunikasion texnologiyalari bazasida ta'lim jarayonining o'quv-metodik va axborotli ta'minotini shakllantirish va rivojlantirish, hamda ATM ni yaratish hamda joriy etishning tashkiliy-uslubiy negizlarini yaratishlarni asosiy vazifa qilib qo'yilgan.

KHT da axborot-kommunikasion texnologiyalarni joriy etishni tezlashtirish va ular orqali ta'lim sohasida ATM ni tashkil etish zaruratini quyidagi asosiy faktorlar orqali ifodalash mumkin:

- zamonaviy ishlab chiqarish, ta'lim muassasalaridagi kengayish va ularda olib borilayotgan keng qamrovli faoliyat, axborot-kommunikasion texnologiyalarlaridan foydalanish imkoniyalari va jarayonlarining kengayishi;

- o'quvchilardagi ommaviy kompyuter, ulardagi o'rta umumta'lim maktabdan hosil bo'lgan hisoblash texnikasi va informatika fani vositalariga egaligi;

- ta'lim-tarbiya jarayonini o'zining axborot muhitiga muhtojligi va bu axborotli ta'minot yordamida mazkur jarayonni olib borishning optimal variantlarini yaratish mumkinligi;

- keyingi paytlarda ko'pgina fanlar bilan informatika fanining o'zaro uyg'un holda rivojlanayotganligi;

- o'quv-uslubiy tadqiqotlar va ularning natijalarini pedagogik amaliyotda joriy etishni tezlashtirish: ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga erishish; ta'lim sohasi boshqarishini optimal-lashtirish; ta'lim-tarbiya sohasida sifat

o'zgarishlari qilib, yuqori ilmiy-pedagogik samaradorlikni qo'lga kiritish va shu kabilar.

Ushbu sohalar bo'yicha ilmiy, ilmiy-uslubiy, uslubiy manbalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim-tarbiya jarayonini, xususan KHT bo'yicha xorijiy davlatlarda va Respublikamizda e'tiborga molik ishlar qilinmoqda. Jumladan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsad va vazifalarini zamonaviy taraqqiyot darajasiga mos va xos holda olib borish talablari qo'yilgan va ulardagi talablarning asosiy mazmuni Respublikamizdagi axborotlashgan jamiyat qurish yo'lidagi asosiy vazifa bilan xamohang bo'lib, axborot maydonining barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish va undagi boshqaruv subyektlari faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan davlat axborot siyosatini shakllantirish muammosi bilan bog'lanib ketgan.

Ushbu muammolar bilan bog'liq bo'lgan davlat siyosatida ham axborot-kommunikasion texnologiyalar bozorini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda va unda jamiyat taraqqiyotining obyektiv zaruriyatidan kelib chiqqan holda, milliy madaniyat, ta'lim-tarbiya va iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari manfaatlariga ta'sir etuvchi keng miqyosdagi iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy va siyosiy yechimlarni hal qilishni talab qiladigan O'zR Prezidentining 2002 yil 30-maydagi "Kompyuterlash-tirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi PF-308-sonli Farmoni e'lon qilindi. Unda : «.....real iqtisodiy tarmoqlarda boshqaruv, biznes, fan va ta'lim sohalarida kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, aholi turli qatlamlarining zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng bahramand bo'lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish» belgilab qo'yilgan.

Demak, XXI asrda bo'lajak mutaxassislarga bo'lgan talab fan-texnika va ayniqsa informasion texnologiyalar rivojiga mos ravishda kun sayin o'sib bormoqda.

Shu sabali ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash DTS iga qo'shimcha qilib quyidagi talablarni qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqqan holda, jamiyat va davlatning zamonaviy talablarini qondirish, ilm-fan, texnika-texnologiyalarning ilg'or yutuqlaridan kichik mutaxassislar tayyorlashda uzluksiz va uzviy ravishda foydalanishga erishish;

- kelguvsida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar uchun ham javob beradigan kadrlar tayyorlash siyosatining ustivorligiga erishish, ta'limda ijobiy sifat o'zgarishlariga erishib yuqori samaradorlikni egallash borasidagi ilmiy-texnikaviy va informasion ma'lumotlar bazasini yaratish;

- DTS dagi sifat ko'rsatkichiga va samaradorlikka erishishning innovasion uslublarini ishlab chiqish va bu sohadagi optimal variantlarni tanlashga oid istiqbolli ilmiy-uslubiy ishlanmalarni tayyorlash zarur;

- ta'lim shakllarini muntazam ravishda optimallashtirish vazifasi har bir o'qituvchining kundalik kasbiy faoliyatiga aylanmog'i lozim va buning natijasida texnik va inson resurslarining o'zaro ta'sirini hisobga olib, butun o'qitish, bilimlarni o'zlashtirishning dinamik jarayonini yaratish va ularni amaliyotda qo'llash tizmini joriy etish.

Shu sababli ham bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlash UTT dagi o'ta muhim muammodir va ushbu jarayonning ATM ni yaratish esa muhim istiqbolli vazifadir. Ushbu muammo yechimini hal qilishda o'quv-metodik ta'minot va xaborot-uslubiy tizimni ishlab chiqishning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish mazkur yo'nalishdagi faoliyatimizning amaliy ahamiyatini baholaydi.

Bu sohada olib borilgan izlanishlarimiz natijalari va bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashning DTS lariga qo'shimcha belgilangan talablar ATM da bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlash jarayonining o'zini ham moderenizasiyalash zarurligini ko'rsatmoqda. Biz ularni quyidagicha ketma-ketlikda belgilashni lozim topdik:

1. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash strukturasi modernizasiyalash.
2. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning metod, shakl va mazmunini modernizasiyalash.

3. Bo'lajak mutaxassislarning malakasini oshirishning metod, shakl, vosita va mazmunini modernizasiyalash.

4. O'quv-metodik ta'minotni modernizasiyalash.

5. Pedagogik ta'limni mutaxassislar bilan ta'minlash tizimini modernizasiyalash.

Ushbu modernizasiyalash jarayoni boshlang'ich ta'limdagi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning o'quv-metodik ta'minotini va pedagogik kadrlar tayyorlash tuzilmalarini modernizasiyalashni talab etadi. Biz qo'yida ularning yo'nalishlari va ularga tarkibi nomlarini kiritish bilan chegaralanamiz: Ular:

I. O'quv-metodik ta'minotni modernizasiyalash

1. Pedagogik ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosidagi yangilanishni e'tiborga olgan holda o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar va dasturlarni tayyorlash va ularni sinovlardan o'tkazish.

2. Kadrlar tayyorlashning fanlar va axborotlar hamda pedagogik-psixologik asoslaridagi federal majmuasini tayyorlash.

3. Tarbiya masalalarini hal qiluvchi o'qituvchilar tayyorlash uchun o'quv –metodik va dasturlar majmuasini tuzish.

4. Uzluksiz pedagoik ta'limning zamonaviy vositalarini tuzish va uni amaliyotga joriy etish,

II. Pedagogik kadrlar tayyorlash tuzilmasini modernizasiyalash

1. Davlat, jamiyat va ta'lim tizimining istiqboldagi talablarini hisobga olgan holda kichik mutaxassisliklar tayyorlash yo'nalishlari va ixtisosliklari ro'yxatini yangilash.

2. Ta'limni modernizasiya qilishning dolzarb masalalari yechimlariga asoslangan mutaxassislar tayyorlashdagi qo'shimcha kasbiy umumta'lim beruvchi pedagogik yo'nalishdagi va ixtisoslashtirishning ro'yxatni yangilash.

3. Mutaxassislar zaxirasi va uning istiqbolini hisobga olgan holda mutaxassislar tayyorlash talabi dinamikasini bashorat qilish tizimini yaratish.

4. Pedagogik ta'limning turli darajalari bo'yicha muassasalar o'zaro aloqasi tizimini ishlab chiqish.

5. Ta'limni modernizasiya qilishning monitoringini ta'minlash.

Buning uchun albatta ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishning optimal variantlarini tanlashning ilg'or, samarali usullarini yaratish borasidagi ilmiy-uslubiy faoliyatni olib borish lozim bo'ladi.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonini optimallashtirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash, ushbu yo'nalishdagi ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini yaratish imkonini berar ekan.

II BOB. AXBOROTLASH TIRILGAN TA'LIM MUHITINI YARATISHNING METODIK ASOSLARI

2.1. Ta'lim jarayonini axborotlashtirishning metodologik asoslari

Mustaqil Respublikamiz xalq xo'jaligining nazariy negizini tashkil etuvchi ilm-fanni taraqqiy ettirishda jamiyatimiz har bir a'zosining tashabbuskor, g'ayratli, bilimli, qobiliyatli, ijodkor va albatta axborot madaniyatli bo'lishligi muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kun ham hayotimiz barcha jabhalarida mavjud zamonaviy texnik vositalardan va texnika-texnologiyalardan samarali foydalana oladigan va uni takomillashtirish imkoniyati hamda ko'nikmalariga ega bo'lgan zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashni talab qilmoqda.

Ilg'or texnologiyalarni omilkorlik bilan o'zlashtirish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, sanoatda material sarfini sezilarli darajada kamaytirishga erishish hoziri zamon ilmiy-texnika taraqqiyotining muhim vazifasi hisoblanadi. Bunday vazifani e'tiborga olgan holda bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash hozirgi davrning dolzarb muammolaridandir. Bu vazifa ayniqsa KHK dagi axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlaydigan o'quv muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur yo'nalishdagi bo'lajak mutaxassislar o'z bilimlarini amaliyotga ijodiy qo'llay olishi va bunda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalana bilishlari zarur bo'ladi va bu orqali ularning zamonaviy texnika-texnologiyalarga bo'lgan ijodiy munosabatini tarbiyalashga erishiladi. Buning uchun bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi quyidagicha **axborotli asoslarga** e'tiborni kuchaytirish lozim bo'ladi:

- bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashda ularni ko'proq texnik ijodiy mehatga jalb etish kerak;

- bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ZAT dan maqsadga muvofiq holda foydalanishga erishish va bu orqali kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga zamin tayyorlash;

- bo'lajak kichik mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish bo'yicha olib boriladigan ishlarni YaAT asosida takomillashtirishga erishish;

- zamonaviy mutaxassislar tayyorlashda axborotlashtirilgan ta'lim muhitini shakllantirishga erishish va undan bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashda unumli foydalanishni yo'lga qo'yish va shu kabilar.

Bo'lajak kichik mutaxassislarning ilmiy-texnik ijodkorligi, jumladan, axborot madaniyati ularning o'quv rejasidagi fanlar bloklaridagi o'rganiladigan fanlardan olingan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy mustahkamlovchi vosita sifatida amalga oshiriladi. Shu sababli bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri YaAT dan foydalangan holda ularni aqliy-ijodiy faoliyatga yo'naltirishdan iborat bo'ladi. Bugungi kunda mutaxassislar va o'qituvchilardagi axborot madaniyati zamon talabi darajasida emasligining asosiy sabablaridan biri ham ta'lim-tarbiyada aqliy-ijodiy faoliyatga katta e'tibor berilmayotganligidadir. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak kichik mutaxassislardagi aqliy-ijodiy faoliyatni rivojlantirilishi ko'p jihatdan ularni ixtirochilik, rasionalizatorlik, kompyuterlarda har xil mavzularni o'rganishning ta'lim beruvchi dasturlari va elektron o'quv-adabiyotlarini yaratishlar kabi faoliyatlarda muntazam ravishda ongli tarzda qatnashib borishiga bog'liq ekan. Bunga erishish uchun bo'lajak mutaxassislarni oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirgandanoq aqliy-ijodiy faoliyatga jalb etishni boshlash kerak bo'ladi.

Hozirgi davrda turli axborot texnikalari, xususan zamonaviy kompyuterlarning ulkan imkoniyatlarini bo'lajak kichik mutaxassislarni axloqiy-tarbiyaviy, kasbiy yoki ijodiy saviyasi o'sishiga xizmat qildirish vaqti keldi. Ba'zi joylarda turli kompyuterli o'yinlar va tamoshalarga jalb qiluvchi tijorat tuzilmalarining soni ortib bormoqda. O'z o'rnida bunday raqobatni yengib chiqish

uchun fan to'garaklari va laboratoriya mashg'ulotlarida mazkur muammoga tegishli ta'lim-tarbiyani olib borish hamda bunday ta'lim-tarbiya maskanlarini zamon talabi darajasida jihozlashni talab etadi.

Ma'lumki, bo'lajak kichik mutaxassislarning bilim saviyasi, savodxonligi qanchalik yo'qori bo'lsa malaka tavsifi ham shunchalik ortib boradi, kasbni egallashi tezlashadi, aqliy-ijodiy faoliyatga va ilmiy-texnik savodxonligi jarayoniga kirib borishi ertaroq boshlanadi. Shularni e'tiborga olib va bu boradagi olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga asoslanib bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi ko'rinishdagi **uslubiy asoslarga** e'tiborni kuchaytirishni lozim deb topdik:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari axborot madaniyatini shakllantirishga umumta'lim maktablaridagi mavjud imkoniyatlar va atrofdagi ommaviy axborot vositalari, mikrokalkulyatorlarning hayotning turli jabhalariga keng kirib borishi, joylardagi kompyuterli o'yinlar xonalari borligi axborot texnologiyalari yo'nalishidagi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda asosiy omillardan biri buladi va undan maqsadga muvofiq foydalanish lozim;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishga o'quv rejasidagi soatlardan tashqari soatlar ajratish shart emas, faqatgina bunda o'qituvchi YaAT dan samarali foydalanish lozim bo'ladi;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kasbiy kompyuterli o'yinlardan foydalanish lozim;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini takomillashtirishda universal didaktik qurilmalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi va boshlang'ich ta'limdagi moddiy–texnika bazasini boyitishning ham muhim asosidir;

- bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda «muloqat-nazorat darsi», «ta'limni harakatchan modellar yordamida boshqarish» kabi yangi pedagogik

texnologiyalardan foydalanish bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning innovasion ta'lim texnologiyasini ta'minlaydi va shu kabilar.

Yuqorida qayd etilgan bo'lajak mutaxassislarning axborotli madaniyatiga quyilgan talablar va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashga berilgan uslubiy tavsiyalar boshlang'ich ta'limdagi axborot texnologiyalari yo'nalishidagi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashni jahon ta'limi talablariga mos holda olib borishni ta'minlaydi.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak mutaxassislarning nazariy bilimlarini puxta o'zlashtirishga, malaka va ko'nikmalari samarali shakllanishiga hamda ularni amaliyotda mustahkamlashga imkoniyat yaratadi, turli modellar, modullar asosida o'qitishning noananaviy shakl, uslub va vositalaridan foydalanishga yordam beradi. Shuningdek, ZAT vositalari yordamida bo'lajak mutaxassislarning o'quv bilimlari banki, texnologik jarayonlarni tadqiq etish va ularni o'rganish orqali ilmiy - pedagogik izlanish salohiyatlari ham shakllana boradi.

Shuning bilan birga Respublikamizda bozor munosabatlarining shakllanishi, zamonaviy ishlab chiqarish sohasida raqobatning kuchayishi, malakali mutaxassislarga bo'lgan talabning keskin ortib borishi, o'quvchilarga muayyan kasb-hunarga oid chuqur bilim berish, ularda kasbiy mehnat faoliyatini to'g'ri tashkil etish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bu borada axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassislarga talab kun sayin ortib bormoqda.

Zamonaviy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashni axborotlashtirish deganda esa mazkur yo'nalishdagi ta'lim jarayonining axborotli ta'lim muhitini yaratish tushuniladi. Bunda talaba, o'qituvchi va ZAT vositalari o'rtasidagi aloqalar jarayoni faoliyati yuzaga keladi, hamda muayyan o'quv kursi bo'yicha zarur komponentlarni jamlagan sharoitda tala-baning bilish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish tushiniladi.

Axborotlashtirilgan ta'lim muhiti boshlang'ich ta'lim o'quv rejasidagi fanlar bloklari bo'yicha axborotlarni yig'ish, jamlash, sinflarga ajratish va ular asosida ma'lumotlar bazasini yaratib, ularni axborot ko'rinishiga keltirib qo'yish tushiniladi.

Demak, biz hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda ZAT va ularni hayotga joriy etish tajribalaridan foydalanib, o'z bilimlarimizni muntazam ravishda oshirib borishimiz zarur ekan va bunda samarali innovasion uslublarni o'zlashtirib olib, ularni amaliyotga joriy qilishimiz lozim. Bu borada zamonaviy - ijodkor o'qituvchi oldida quyidagi vazifalarni maqsadga muvofiq holda hal qilib olish turadi:

- o'qitishning har bir bosqichida ya'ni o'quv rejasidagi har bir fanlar bloklarida ta'lim mazmuni (o'quv rejasi va dasturi, o'quv rejasidagi fanlar bloklari uzluksizligi va uzviyligi, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar)ni aniqlab olish;

- o'quv yuklamasini aniqlash va uni o'rganishga talabalar vaqt byudjeti hamda salohiyatini mosligiga e'tibor berish;

- ta'lim - tarbiyaning shakllari, uslublari va ularga innovasion uslublarni qo'llash imkoniyatlari mavjudligini baholay bilish;

- o'quv jarayonining motiv komponentini ro'yobga chiqarish maqsadida fanning mazmuniga kiritish uchun qo'shimcha ravishda vaziyatli (muammoli) matnlar, test - savollari tayyorlash;

- kasbiy sifatlar va pedagogik malakalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan kompyuterli o'yinlar ishlab chiqish;

- ta'lim oluvchilardagi o'zlashtirish darajasini aniqlash va uning monitoringini kuzatib borish uchun mos ravishda mezonlar hamda bilim va malakalar egallash sifatini xolisona baholash uchun test-savollarini tayyorlash;

- o'quv rejasidagi fanlarni modulli bloklar shakliga keltirib o'rganish metodologiyasi bilan tanish bo'lish va bu bloklar orasidagi axborotlar almashinish algoritmini ishlab chiqib, uni amaliyotga joriy eta bilish kerak;

- bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda o'rganiladigan fanlar bo'yicha maqsadlar ketma-ketligi aniqlanib, undagi oxirgi maqsadga erishish uchun harakatchan modellarni qo'llay olish va shu kabilar.

Bu qayd etilgan vazifalar fan o'qituvchisida to'liq mujassam etilgan bo'lsa, u holda undan ta'lim olayotgan talabalar ijodiy fikrlashga o'rgana-dilar, dalillarni izohlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar va natijalarni tahlil qilishni o'rgatish orqali talabalarda yangicha tafakkur paydo bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hamma vaqt ham har qanday o'qituvchi o'zida mujassam qila olish imkoniyatiga ega bo'lavermaydi. Bunday hollarda o'rganilayotgan fanning o'quv-uslubiy ta'minotini kompyuterlashtirilgan holda tayyorlash juda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda o'qituvchi **birinchidan**, o'zining fani bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan bo'lishi kerak bo'lsa, **ikkinchi** tomondan ZAT va tizimlarini ham yuqori darajada bilishligini talab etiladi. Buning nati-jasida o'qituvchi muayyan fan bo'yicha ATMni yarata oladi.

Boshlang'ich ta'limda o'quv jarayoni bir biri bilan uzluksiz hamda uzviy bog'langan nazariy va amaliy qismlaridan iborat. Nazariy ta'lim vazifasi, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular bo'lajak mutaxassislarga umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha nazariy bilimlar berish, dastlabki boshlang'ich amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Amaliy ta'lim esa kasbiy bilimlarni mustahkamligicha yo'naltirilgan bo'lib uning asosiy shakli ishlab chiqarish ta'limi hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida nazariy va amaliy ta'lim o'quv jarayonining mustaqil ammo o'zaro bir-biriga bog'langan qismi hisoblanadi.

Ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonida kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonining samaradorligi esa o'quvchining o'quv faoliyatini kompleks holda tashkil etilishiga bog'liq. O'quvchining o'quv faoliyatini kompleks holda tashkil etish deganda, o'quv jarayonida o'quv-biluv, o'quv-amaliy va mustaqil faoliyatlarni birgalikda olib borish nazarda tutiladi.

Bu borada muayyan fanlar bo'yicha alohida, mustaqil ishlaydigan quyidagi kompyuterli tizimlar ishlab chiqish qo'yilgan muammo yechimini kafolatlaydi:

- o'qitish-o'rgatish tizimlari;
- maslahat beruvchi tizimlar;
- axborot qidiruv tizimlari;
- talabalar bilimni baholash va nazorat qilish tizimlari.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'limning ATM ni yaratish va unda multimediyadan keng foydalanish talabalar o'zlashtirishi-ning sifatini oshiradi va ta'limda yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish imkoni yaratiladi. Shu sababli ham biz bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning ATMni tayyorlashda quyidagi ketma-ketlikda ish olib borishni tavsiya etamiz:

- fanlar bloklari va muayyan fanlar bo'yicha ma'lumotlar, ma'lumotlar bazalari, axborotlar, axborotlar bankini tuzish;

- ma'lumotlar bazalari o'rtasidagi aloqadorlikning ifodalovchi va axborotlar bazalarini masalaning qo'yilishiga mos sinflarga ajratish algoritmlarini ishlab chiqish;

- turli zamonaviy axborotli texnologiyalar bazasini tashkil etish va ular ichidan qo'yilgan muammoga moslarini foydalanish uchun tanlash, ularni lozim topilganda muammo yechimini topishga moslash yoki yangi innovasion uslubni ishlab chiqish;

- axborot-kommunikasion texnologiyalari vositalarini qo'llashni uddalay oladigan mutaxassislarni tayyorlash;

- axborotlashtirish va aloqa vositalariga ega bo'lish;

- axborotlashtirish haqidagi qonun-qoida, qaror, farmoyish va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasalarida talabalarning ZAT yordamida zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish ularni fan-texnika yangiliklari va ATM bilan boyitib borish ularning umumkasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va ulardan amaliy

faoliyatda keng foydalanishning optimal variantlaridan birini qo'lga kiritishni kafolatlar ekan.

2.2. Bo'lajak mutaxassislar tayyorlashda axborotlashtirilgan ta'lim muhitidan foydalanish

Respublikamizdagi mavjud uzluksiz ta'lim tizimi va undagi olib borilayotgan islohatlar ta'lim mazmunini ham modernizasiyalash talabini qo'ymoqda. Bu talablar uzluksiz ta'lim tizimining har bir tarkibiy qismi uchun muhimdir.

Bu talablarni amalga oshirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

- ta'lim tizimida iste'mol uchun foydalanilayotgan o'quv-me'yoriy hujjatlar va ularga mos darslik hamda o'quv qo'llanmalar mazmunini modernizasiyalashga;
- fanlar va ular mazmunidagi izchillik hamda uzviylikni ta'minlanishining doimo nazoratda bo'lishiga;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi o'rganiladigan nazariy va amaliy materiallarning o'zaro vobastaligini o'rnatishga;
- o'qitishning innovasion uslublarini ta'lim jarayonida muntazam ravishda qo'llashga;
- tayyorlanayotgan mutaxassislik yo'nalishini e'tiborga olgan holda o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tizimiy ravishda olib borishga;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'lim sifatini oshirishga va bunda axborotlashtirilgan ta'lim muhitidan samarali foydalanishga hamda kompyuter xonalarida kasbiy kompyuterli o'yinlar va ta'lim beruvchi dasturlar hamda kompyuterli trenajyorlar imkoniyatlaridan foydalanishga erishish lozim bo'ladi;
- ATMLar asosidagi mutaxassislar tayyorlashning axborotli boshqaruv tizimini yaratishga;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi muayyan fan yoki yo'nalish bo'yicha «**Innovasion dasturiy didaktik majmua**»lar yaratishni keng yo'lga qo'yish va buning yordamida ta'lim-tarbiya jarayonini axborotli boshqaruviga erishishga;

- ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagogik kadrlar tayyorlash tuzilmasini modernizatsiyalash.

Takomillashtirilgan o'quv reja va dasturlar natijasida o'quvchilar turli bilim va malaka saviyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish amaliyoti vazifalari va mazmuni ko'rib chiqiladi. Takomillashtirilgan o'quv reja va dasturlarning amaldagi tadbiqida o'quv jarayonini tashkil etishga oid yangi ishlab chiqilgan o'quv materiallari ham muhim ahamiyatga ega. O'quv materiallarining qayta ko'rib chiqilishi yangi ishlangan o'quv, mazmun va baholash uslublariga olib keladi».

Demak, UTTning barcha ta'lim muassasalarida ham ta'lim mazmunini modernizatsiyalash lozim bo'lmoqda. Yaqin kelajakka bir nazar tashlasak, mustaqillik qo'lga kiritilgan kunlardan oq, zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdan iborat bo'lib, ular turli ma'suliyatli ishlarni amalga oshirishga tayyorlanadi. Va demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, 1990 yillardagi boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy saviyasi bugungi kun zamonaviy boshlang'ich ta'lim bitruvchilaridan intellektual salohiyati jihatidan keskin farq qiladi. Bu ayni haqiqat, chunki UTTdagi tayyorlanayotgan kadrlar zamon va jamiyat taraqqiyotiga saviyalariga mos kelishi kerak. Shu sababli ham respublikamizning bugungi taraqqiyoti ham ta'lim mazmunining va strukturasi hamda ularning me'yoriy hujjatlarini taraqqiyotga mos modernizatsiya qilishni talab etmoqda. Bunda **o'quv reja va dasturlar majmuasini isloh qilishni** quyidagi ketma-ketlikka e'tibor berish lozim bo'ladi:

- o'quv reja va dasturlar majmuasi mazmunini isloh qilishda tayyorlanadigan mutaxassislarni kasbiy faoliyatidagi tayyorlashda muhim bo'lgan ta'lim dasturlari ulushiga e'tiborini qaratish kerak. **Bunda** vasiylarning talab va takliflarini o'rganish muhim hisoblanadi;

- bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida vasiylarning taklif va mulohazalarini hamda bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatlari xususiyatlarining zamonaviy talablarini e'tiborga olgan holda muntazam

ravishda ishchi o'quv dasturlarini tahlil qilib borish va kerakli joylarga tuzatishlar kiritib, takomillashtirib borish. **Bunda** KHKning o'quv-uslubiy bo'limi bilan ishlab chiqarish amaliyoti bo'limidagi innovasion fikrlar muhim o'rin tutadi;

- o'quv, o'quv-metodik, ilmiy-metodik, o'quv-ommabop materiallarni bo'lajak kichik mutaxassislarning kasbiy faoliyatini yuksaltirishni hisobga olgan holdagi ko'rgazmaliligini ta'minlashga e'tiborini kuchaytirish kerak. **Bunda** kompyuterli trenajyorlar, kasbiy kompyuterli o'yinlar, kompyuterli stendlar, muloqatli kompyuterli o'rgatuvchi dasturlar va shu kabilarning o'rni o'ta muhimdir;

- bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi maxsus (mutaxassislik) va umumta'lim fanlar bloklari o'rtasidagi ta'lim mazmuni bo'yicha uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim bo'lgan turdosh fanlar mazmuniga ham e'tiborni qaratish kerak va shu asosda o'qitiladigan fanlar mazmuniga tegishli talablarni ishlab chiqish. **Bunda** fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablarni tayyorlashda bo'lajak kichik mutaxassislarning amaliy-kasbiy faoliyatiga tegishli ma'lumotlarga ko'proq e'tibor berish ham ushbu sohada asosiy rol ni bajaradi;

- bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim mazmunida uzviylikka e'tibor berish lozim bo'ladi. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi barcha fanlar bloklariga kiruvchi fanlardan o'quv dasturlarni tayyorlashda mutaxassislik fanlari mazmuni bilan uyg'unlikni ta'minlashga erishish. **Bunda** lozim topishganda ular mazmuniga o'zgartirishlar kiritib, moslashtirish lozim bo'ladi.

Umuman olganda yuqoridagi ta'lim mazmunini isloh qilishda uzviylik va uzluksizlik uslubiy-didaktik asos bo'ladi. Bunda pedagogik jihatdan uzviylik - bu **didaktik tamoyil**, ya'ni bu o'quv jarayonining mazmuni, tashkiliy shakl va usullarini belgilab beruvchi asosiy **qoida**, sharoit – bu ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi holatlar, **harakatga keltiruvchi kuch** – bu ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil, **ta'lim**, rivojlanish va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo'lgan talab sifatida izohlanadi.

Demak, zamonaviy bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosini, ularga mos ta'lim mazmunini modernizatsiyalashga ko'p jihatlarga bog'liq bo'lib, ana shundagina raqobatbardosh zamonaviy kvalifikatsiyali kadrlarni tayyorlashga erishish mumkin ekan va ta'lim mazmunini quyidagi ketma-ketlikda olib borilgani ma'qul:

- uzluksiz ta'lim tizimida DTS talablarining bajarilishini nazorat qilishning tizimini yaratish va ular natijasi asosida DTSga qo'yilgan talablarni yangilab borishga erishishning aniq mexanizmini ishlab chiqish hamda ular asosida o'quv adabiyotlari mazmuniga qilinadigan modernizatsiyalash ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-uslubiy kengash faoliyatini ishga tushirish;

- uzluksiz ta'lim tizimida mustaqil ta'lim sifatini oshirish maqsadida **kompyuter xonalarida** kasbiy kompyuterli o'yinlar va ta'lim beruvchi dasturlar hamda kompyuter trenajyorlar imkoniyatlaridan foydalanishga erishish;

- ta'lim mazmunini muntazam ravishda modernizatsiyalashni optimallashtirish maqsadida «**Bosh innovasion ta'lim texnologiyalari markazi**» va ularning hududiy bo'limlarini tashkil etib, ularning uzviy aloqalarini o'rnatishga erishish;

- ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashning innovasion texnologiyalarini yaratishda o'quv muassasasining ATMni yaratishga erishish va uning yordamida ta'lim mazmunining muntazam ravishda taraqqiyot bosqichlariga mos va hos ravishda rostdash va boshqarish imkoniyati yaratish;

- uzluksiz ta'lim tizimi uchun ATM markazini tuzish va ularning viloyatlardagi hududiy markazlarini tuzish. Bunda muayyan yo'nalishlar bo'yicha ATM yaratilib, global markaz hosil qilinishi orqali ushbu jarayonning amaliy ahamiyati yanada kuchaytirish;

- muayyan fan yoki yo'nalish bo'yicha «**innovasion dasturiy didaktik majmua**»lar yaratishni keng yo'lga qo'yish. Bu orqali ta'lim-tarbiya jarayonining axborotli boshqaruvchiga erishiladi;

- ATM asosidagi mutaxassislar tayyorlashni modernizasiyalash va bunda quyidagilarni hisobga olish kerak: mutaxassislar tayyorlash strukturasi jamiyat taraqqiyoti bilan mos holda modernizasiyalash; mutaxassislar tayyorlashning metod, shakl va mazmunini modernizasiyalash; mutaxassislarni malakasini oshirish va qayta tayyorlashning metod, shakl, vosita va mazmunini modernizasiyalash; o'quv-metodik ta'minotini modernizasiyalash; pedagogik ta'limni mutaxassislar bilan ta'minlash tizimini modernizasiyalash va shu kabilar;

- o'quv-metodik ta'minotni modernizasiyalash va bunda quyidagi yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishga erishish: pedagogik ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosidagi yangilanishni e'tiborga olib o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar, dasturlarni tayyorlash va ularni sinovlardan o'tkazish; kadrlar tayyorlashning fanlar va axborotlar hamda pedagogik-psixologik asoslaridagi federal majmuasini tayyorlash; tarbiya masalalarini hal qiluvchi o'qituvchilar tayyorlash uchun o'quv metodik va dasturlar majmuasini; uzluksiz pedagogik ta'limning zamonaviy vositalarini tayyorlash va uni amaliyotda joriy etish;

- pedagogik kadrlar tuzulmasini modernizasiyalash va bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim bo'ladi: mutaxassislar zahirasi va uning istiqbolini hisobga olgan holda pedagogik mutaxassislar tayyorlash talabi dinamikasini bashorat qilish tizimini yaratish; pedagogik ta'limning turli darajalari bo'yicha muassasalar o'zaro aloqasi tizimini ishlab chiqish; ta'limni modernizasiya qilishning monitoringini ta'minlash.

Ta'lim mazmunini modernizasiyalash ta'limda innovasion yondashuvlar qilishda bir qator afzalliklarni qo'lga kiritishga imkoniyat yaratadi.

«2008-2012 yillarda uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizasiyalash yangi sifat darajasiga ko'tarish» Davlat dasturida:

«Ta'lim sohasidagi milliy dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan qator ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim sifat samaradorligini rivojlanishi dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda

yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish bugungi kunda eng dolzarb masala hisoblanadi», deb alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, **Dastur doirasida** belgilangan vazifalarda «**Ta’lim muassasaarida virtual o’quv-laboratoriya, zamonaviy axborot kommunikasiya, darslik, qo’llanma va o’quv filmlarining elektron turlarini yaratish va ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish**» nomli alohida punkt ham bor. Bularni quyidagi ketma –ketlikda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir;

- elektron ta’lim resurslari va Zio NET tarmog’i vositasida ta’lim muassasalari iqtidorli o’quvchilari o’rtasida «Online» rejimida **virtual muhitda** har xil intellektual tanlovlar (olimpiadalar), forumlar tashkil qilish orqali yoshlarning axborot kommunikasion resurslariga bo’lgan ehtiyojlarini qondirishga erishiladi. **Bunda INTERNET** «Online» rejimida ishlashi asosida yoshlarning o’z iqtidorlarini namoyish etishga imkoniyat yaratiladi;

- axborot texnologiyalari va kompyuterlar asosida ta’lim olishning o’quv-uslubiy majmualarini yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanish orqali o’quvchi-yoshlarni mustaqil bilim olishiga uslubiy asoslar yaratiladi;

- variantiv ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va ulardan amaliyotda keng foydalanish orqali o’quvchi-yoshlarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim berishga imkoniyat yaratiladi;

- o’quv adabiyotlarining yangi avlodlarini yaratishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va zamonaviy darslik modimini yaratish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o’zida mujassamlashtirgan zamonaviy darslik namunasi yaratiladi;

- masofaviy ta’lim uchun elektron ta’lim nashrlari, intellektual elektron darslik va o’quv adabiyotlarni yaratish orqali yoshlar uchun masofaviy ta’limni amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi;

- axborot resurs markazlari va ta’lim muassasalarining kutubxonalarida avtomatlashtirilgan ishchi o’rni (AIO’) va elektron axborot almashinuv tizimini

yaratish va joriy etish orqali axborot-resurs zamonaviy dasturiy ta'minot amalga oshiriladi va ma'lumotlar bazasini barpo etishga erishiladi;

- fanlar bo'yicha virtual laboratoriyalar tashkil etish orqali fanlarni zamonaviy ta'lim vositalari asosida o'qitish imkoniyati yaratiladi;

- «**fan**→**ta'lim**→**amaliyot**» integrasiyasining ilmiy va metodik ta'minotini rivojlantirish orqali, qayd etilgan tizimning huquqiy-me'yoriy asoslari takomillashtiriladi;

- Axborot – resurs markazi qoshida «**Uslubiy xizmatlar**» va hududiy boshqarmalarda «**Uslubiy xonalar**» tashkil etish orqali ta'lim muassasalarida uslubiy yordam ko'rsatishning yangi tizimi yaratiladi;

- ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, o'quv fanlari xususiyatlarini hisobga oluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tadbiq etish orqali o'quvchi-yoshlarga sifatli kafolatlangan bilim berish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish tizimi yaratiladi;

- masofaviy ta'lim uchun virtual amaliy mashg'ulot (kurs ishlari, kurs loyihalari) va laboratoriya ishlarini yaratish orqali o'quvchi-yoshlarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda fanlarni chuqurroq o'rganish imkoniyati yaratiladi;

- kompyuter dasturlarini yaratish orqali o'quv jarayonlarini nazorat, o'quvchi-yoshlar tomonidan fanlarni o'zlashtirish monitoringi tashkil qilinadi.

2.3. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitini yaratishning nazariy – metologik asoslari

XXI asrga mos ta'lim tizimi bo'lajak mutaxassislarni zamon talablari asosida tayyorlashlarni taqozo etmoqda, ayniqsa jamiyatni axborotlashtirishning maqsad va vazifalarini e'tiborga olgan holda mutaxassis tayyorlashda ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikasion texnologiyalardan keng foydalanishni talab qilmoqda.

Ammo, ta'lim–tarbiya jarayonida axborot-kommunikasion texnologiyalardan keng foydalanishning va bu orqali bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning axborotlashgan ta'lim muhiti ni yaratish borasida mukammal ilmiy ishlanama yoki ilmiy-uslubiy majmua tayyorlangan emas. Bularni e'tiborga olib mazkur ishga ta'lim jarayoni uchun ATM ni yaratishning maqsad, vazifalari va uni shakllantirish borasidagi izlanishlarimiz natijalarini bayon qilishni maqsad qilib oldik.

Hozirgi vaqtda ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni bilan axborot-kommunikasion texnologiyalarning tizimiy integrasiyasi va ular asosidagi ATM ni shakllantirish tamoyillari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli ham ishning dastlabki bosqichini ATM ning maqsad va vazifalarini aniqlashda boshlaymiz.

Avvalo, ATM ning o'zi haqida fikr yuritadigan bo'lsak ATM ning o'zi esa madaniy-ma'rifiy, intellektual, dasturiy-metodik, tashkiliy va texnik ta'minotlarni jamlovchi (to'plovchi) ochiq tizimdan iboratdir.

ATM – bu dasturli-kommunikasion muhitdan iborat bo'lib, u ixtiyoriy sondagi ta'lim muassasalarining ta'lim darajasi va kasbiy jihatdan ixtisoslashuvidan qat'iy nazar, ularning axborotli ta'minoti va “Internet” muhitidagi dalillar bilan asoslangan o'quv jarayoni olib borishning yaxlit texnologik vositalarini ta'minlaydi.

Ta'lim tizimida ATM ni yaratishning **asosiy maqsadi ta'lim** muassasalaridan ta'lim darajasi, axborot, ta'lim ruserslari bo'yicha ta'lim oluvchilarning qayerda yashashidan, shuningdek, unga ta'limning zaruriy xizmatlaridan qat'iy nazar, eng zamonaviy axborot va telekommunikasion texnologiyalardan foydalangan holda ulardan keng ko'lamdagi mutaxassisliklarni egallashi bo'yicha bilim olishga bo'lgan talablarini qondirishdan iboratdir.

ATM ning asosiy maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi bir qator **vazifalarni** hal qilishga to'g'ri keladi:

- ATM muayyan o'quv muassasining shakllanishidagi o'quv metodik ta'lminotlari, o'quv jarayonini tashkillashtirish va yuritishga bog'liq bo'lmagan holda o'zining iqtisodiy siyosatini yurita olishi imkoniyatini yaratish;

- o'quv jarayoni borishini rasmiylashtirilishini e'tiborga olgan holda ta'limning barcha bosqichlariga joriy etishni ta'minlovchi ixtiyoriy o'quv muassasa uchun namunali servis xizmati majmuasini tayyorlash;

- ATM ga kiruvchi ixtiyoriy o'quv muassasasidagi foydalanuvchini maksimal darajada axborot bilan ta'minlash imkoniyatini beruvchi axborot va boshqa resurslarning (zaxiralarning) ro'yxatini (menyusini) tuzish jarayonini avtomatlashtirish;

- ish joyi qayerdaligidan qat'iy nazar ixtiyoriy ilmiy va pedagogik kadrlarga ATM bo'yicha kasbiy munosabatni amalga oshirish imkonini yaratish;

- ATM bo'yicha statistik va boshqa dinamik ma'lumotlarni ham tasvirlash hamda ularni yig'ishni avtomatlashtirish;

- ATM ning monitoringini ta'minlash, undagi taklif va mulohazalar yig'ish hamda takomillashtirish mexanizmalarini yaratish;

- ATM ning funksional vazifalarini bajarilishini nazorat qilish va uning monitoringini hisobga olish, ilmiy-uslubiy markazni tashkil etish va uning faoliyatini optimallashtirishni hisobga olib professor-o'qituvchilar tarkibini tashkil etish;

- ATM ning funksional vazifasini bajarishni takomillashtirishga muntazam ravishda ma'lumotlar bazalarini tayyorlab borish.

Ma'lumki, har qanday texnologik jarayondan ta'lim jarayonida foydalanishda, albatta uning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olishga to'g'ri keladi, chunki ta'lim tizimi ham o'ziga xos dinamik tizim bo'lib, u jamiyat va davlat taraqqiyotidagi ilmiy-texnik rivojlanishni o'zida aks ettirmog'i lozim.

Shu sababli ATM shakllantirishda quyidagi zaruriy jihatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

IV. ATM ni tashkil etish tamoyillari:

ATM foydalanuvchiga tez va qulay vositalar yordamida quyidagilarni ta'minlash kerak:

- o'quv muassasining qayerdaligi va qanday darajadagi mutaxassis tayyorlashligiga bog'liq bo'lmagan holda ma'lumot bera olish;

- ATM bo'yicha ta'lim oluvchi va ulardagi tayyorlanayotgan muayyan mutaxassisliklar ro'yxati aniq bo'lishi lozim;

- o'quv muassasasi qayerda joylashmasin undan ixtiyoriy axborot zaxirasini (resursini) olish mumkin bo'lsin;

- axborot va kommunikasion texnologiyalarga oid zamonaviy texnologiyalar ATM ga bog'langan bo'lishi lozim;

- professor-o'qituvchilar tarkibining (ularning qayerdaligidan qat'iy nazar) intellektual mulkini hisobga olib borish;

- ATM da telekommunikasion va o'quv-metodik zaxiralarni hisobga oluvchi ilmiy-texnik dasturlarni hisobga olish kerak;

- ATM dan foydalanuvchini qo'llovchi vositalarni yaratish;

- ATM da qatnashuvchi o'quv qo'llanma mualliflaridan tortib, o'quv muassasigacha moddiy rag'batlantirish lozim.

V. Axborot zaxiralarini shakllantirish:

- matnli materiallar;

- kompyuterli ta'lim beruvchi dasturlar;
- matematik modellar;
- tashkiliy-tuzilmaviy modellar;
- konseptual modellar;
- ta'lim yo'nalishidagi multimedia mahsulotlari;
- eksperimental tadqiqot materiallari;
- spravochnik ma'lumotlar;
- sosiologik tadqiqotlar natijalari;
- ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik faoliyatini ifodalovchi materiallar.

III. ATM ni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish vositalari:

1. ATM ni qo'llab-quvvatlash bo'yicha;

- ixtiyoriy toifadagi foydalanuvchilardan tushadigan taklif va mulohazalarni yig'ish va tahlil qilish;
- ta'lim tizimi mutaxassislari fikrlarini ham hisobga olgan holda ATM ni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- ko'p sonli foydalanuvchilarga mos monitoringni yuritish;
- qabul qilingan tavsiyalar asosida mos dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish, ATM ning ishlash texnologiyasini va metodikasini yaratish (moderenizatsiyalash).

2. Foydalanuvchini qo'llab-quvvatlash va ATM ni rivojlantirish vositalari bo'yicha:

- o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi va metodikasi bo'yicha "on-line" rejimida tezkor konsultasiyani tashkil etish;
- ta'lim muassasasining huquqiy masalalari bo'yicha konsultasiya tashkil etish;
- ATM hududiy qismlarining funksional vazifalarini bajarishni ta'minlashga texnik mutaxassislarni o'rgatish;
- muntazam ravishda seminar va konferensiyalar tashkil etish;
- o'quv-metodik, informasion va boshqa ta'minotlardan ATM da foydalanishlar bo'yicha tajriba almashishni tashkillashtirish.

VI. ATM ning axborot resurslari.

ATM ning axborot resurslari bir necha turli mazmun va uslubdagi resurslarni joriy etish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bunday joriy etishda asosan quyidagi axborot resurslari qatnashadi:

- matnli materiallar;
- kompyuterli ta'lim dasturlari;
- matematik modellar;
- tashkiliy-tuzilmaviy tuzilma va modellar;
- muayyan ta'lim yqnalishiga oid multimediali ta'limga tegishli materiallar;
- amaliy dasturlar majmuasi;
- standart amaliy dasturlar va shu kabilar;
- amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishga mo'ljallangan qurilma

va stendlarning funksional vazifalarini aks ettiruvchi apparat dasturli majmua (bu axborot resurslarining asosiylaridan biri bo'lib hisoblanadi).

Bulardan tashqari ATM ning axborot resursdan maqsadga muvofiq (rasional) foydalanishni xohlovchi iste'molchi yoki tadqiqotchi quyidagi resurslarni e'tiborga olmog'i lozim va bular ATM ning funksional vazifalarini bajarishda **ko'maklashuvchi resurslar** vazifalarini bajaradilar:

- tajribaviy tadqiqotlar natijalari;
- spravochnik ma'lumotlar;
- sosial tadqiqotlar natijalari.

Bu qayd etilgan ko'maklashuvchi resurslar nomlaridan ma'lumki, ATM dan maqsadli foydalanishda o'quv-metodik majmua ham muhim ekanligi kelib chiqadi. Demak, ATM faoliyatini to'liq olib borish uchun o'quv-metodik majmua va axborot resurslarining roli va o'rni beqiyos ekan, ya'ni ularsiz ATM dan amaliy faoliyatda samarali foydalanib bo'lmas ekan. Shu sababli ham ulardan amaliy faoliyatda foydalanishda ATM ning o'quv-metodik va axborot resurslarini quyidagi toifalarida ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi:

Axborot resurslarining birinchi toifasi- bu elektron kutubxonaning o'quv jarayonini bo'yicha muayyan maqsadlari asosida tuzilgan axborotlar fondidan iborat bo'lib, bunda ATM ga kiruvchi o'quv muassasai bo'yicha ixtiyoriy shakldagi axborotni virtual tasviridagi ifodasi o'z o'rnini topgan va bu axborotlar o'zining foydalanishiga qarab, ular adreslangan (maxsus yo'nalishlarga ajratilgan) holda tayyor holga keltirilib qo'yiladi. Bu axborot resurslari ATM dagi global (olamshumul) katalog tarkibiga kiradi va ulardan ATM dagi funksional va vazifani bajarishda foydalaniladi hamda boshqa maqsadlar uchun ularni virtual tasvirlar bo'yicha uzatish ham mumkin.

Umuman olganda bu toifadagi axborot resurslari avtomatlash-tirilgan laboratoriya majmualarini tashkil etishga taalluqlidir. Buning uchun ATM ga kiruvchi o'quv muassasasi zamonaviy jihozlarga ega bo'lgan va o'quv muassasi uzoqda joylashgan hollarda ham axborotlarni uzatishni avtomatlashtirish vositalari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

ATM resurslarining ikkinchi toifasi -bu ushbu faoliyatda qatnashuvchi o'quv mussasasining o'quv-metodik resurslari katalogidan iboratdir. Bundagi ATM ning ixtiyoriy o'quv mussasasi bo'yicha elektрон byurtmalar menyusi axborot resurslarining asosini tashkil etadi. Menyuda foydalanish uchun quyidagi ko'rinishdagi resurslar bor:

- kitoblar (ilmiy, ilmiy-metodik, metodik tavsiyanomalar va qo'llanmalar, darslik, o'quv qullanmalar va h.k.);
- dasturlar;
- ma'lumotlarni o'qish qurilmalari;
- ATM ning funksional vazifalarini bajarishga oid turdi xil ilmiy va texnologik ishlanmalar;
- hududiy ATM ga kiruvchi va butunicha ATM ni funksional vazifalari bo'yicha imkoniyatlarini kengaytirishga mo'ljallangan loyihalar va modellar.

ATM ning uchunchi toifali resurslari -bu ATM tarkibiga kiruvchi o'quv mussasasidagi turli tashkiliy va pedagogik tadbirlar, seminarlar, konferensiyalar, simpoziumlar haqidagi ma'lumotlar. Bunda vedeokonferensiyalarning roli beqiyos bo'lib, uning yordamida ixtiyoriy o'quv mussasasida bo'layotgan yangiliklarni tezkorlik bilan hamma o'quv mussasalarida foydalanishga erishilish mumkin. Bundan tashqari ta'lim oluvchi o'rganilayotgan ma'lumotni faqatgina o'z ustozidan emas, balki boshqa o'quv mussasasining professor-o'qituvchisidan ham eshitish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa ularning o'z sohasiga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

ATM ning to'rtinchi toifali resurslari –bu intellektual resurslar. Bunga mualliflarning ijodiy faoliyati mahsullari kirib, ular dasturli-texnik resurslar, ixtirochilik natijasida yuzaga kelgan natijalar, fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlari asosida paydo bo'lgan ishlanamalar va zamonaviy ishlab chiqarish bo'yicha yaratilgan yangi texnika- texnologiyalar, shuningdek, avtomatlashtirilgan ta'lim beruvchi kompyuterli tizimlar, intellektuallashtirilgan ta'lim tizimlari bo'yicha ma'lumotlar bazalari, yo'nalish bo'yicha kashfiyotlar, ixtirolar va ularning bo'lajak kichik mutaxassislarini tayyorlashda foydalanish bo'yicha ma'lumotlar bazalari va h.k. Demak, ATM ning bu toifasiga kiruvchi AR, bo'lajak mutaxassislarining yuksak insoniy fazilatlariga va o'z davrining zamonaviy ilmlarini egallashiga hamda jarayonlarga ongli-ijodiy munosabatda bo'lishligiga, ahlani va ahloqni boyib borishligi kabi oliyjanob xislatlarga ega bo'lishligini ta'minlashga yordam beradi.

Ushbu toifaga kiruvchi axborot resurslarining nomini **“Elektron intellektual mulk”** deb nomlab olinadi va uni foydalanishdagi yo'nalishga qarab yana mos yo'nalishlar bo'yicha nomlanadi.

V. ATM ni tashkillashtirishning tashkiliy tuzilmaviy ko'rinishi

Ta'lim tizimida ATM ni yaratish “INTERNET” tarmog'ida ishlashga mo'ljallangan, namunaviy dasturiy ta'minot negizida qurilgan bir jinsli tuzilma

orqali amalga oshiriladi. Bu dasturiy ta'minot respublikamiz turli hududlarida joylashgan va axborot kommunikasion texnologiyalar bilan jihozlangan KHK larida hosil qilinadi va undan hududiy ATM larni hosil qilishda foydalaniladi. Har bir hududiy ATM ta'lim muassasasining barcha ko'rsatkichlarini ifodalovchi vertual tasvirlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Bular asosidagi ATM ning umumtizimli bazasi tashkil etiladi va uning funksional vazifasini bajarishga dastlabki imkoniyat yaratiladi.

VI. ATM nin umumiy shakli.

- Ma'lumki, ATM odam-mashina rejimida ishlovchi ochiq tizimdir va ular yordami uzluksiz ta'lim tizimi uchun mutaxassislar tayyorlashni takomillashtiradi. Bunday vazifani bajarish esa ATM ning muloqatli texnik-dasturiy tizimi zimmasiga yuklatiladi.

Muloqatli texnik-dasturiy tizimning umumiy ko'rinishidagi muayyan tizimning maqsadlar majmuasini modellar va amaliy dasturlar majmuasi tashkil etadi. Bunda albatta muloqatli texnik-dasturiy tizimning boshqa komponentlari ishtiroki inkor etilmaydi. Bulardan tashqari muloqatli texnik-dasturiy tizim uchun tashqi va ichki munosabatlarga e'tibor berilishi ham ta'lim tizimi uchun yaratilayotgan ATM ning samarali shakllanishiga mustahkam asos bo'ladi.

Demak, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga, ya'ni ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishning samarali yo'llaridan biri, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoni uchun ularga ATM ni yaratish muhim asos ekan. Yuqoridagi ATMni shakllantirish borasida olib borgan izlanishlarimiz natijalarining ko'rsatishicha quyidagi fikrlarni xulosa sifatida ifodalash mumkin:

- axborot-kommunikasion texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan, ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga joriy etilishi, o'quv jarayonining o'quv-uslubiy ta'minotni o'zaro bir-biri bilan bog'langan va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi ikkita tashkil etuvchi, ya'ni qog'ozda qat'iy ifoda etilgan an'anaviy ko'rinishdagi o'quv-

metodik ta'minot va elektron ko'rinishdagi o'quv-uslubiy ta'minot majmuasi sifatida qarashga majbur qiladi;

- bo'lajak mutaxassislar tayyorlashda ham ATM muhitidan foydalanib ta'lim berish, ushbu jarayonning mukammal o'quv-uslubiy ta'minotini yaratishni kafolatlaydi va bu orqali matnni va o'quv-uslubiy materiallarni oddiy ko'rinishda aks ettirmasdan, balki uni namoyish etish ham mumkin, shuningdek, aytib berish va ko'rsatish mumkinligi bilan birga mazkur ta'lim texnologiyasini didaktik imkoniyatlari va afzalliklarini kafolatlaydi;

- bo'lajak mutaxassislar tayyorlashning ATM ta'limning interaktiv metodlaridan foydalanish singari innovasion metodikalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, u eng avvalo muloqatli o'qitishdir va bu jarayonda: o'qituvchi va o'quvchi; kompyuter va foydalanuvchi; foydalanuvchi va foydalanuvchilar o'zaro hatti – harakatlari amalga oshiriladi;

- bo'lajak mutaxassislar tayyorlashning ATM ni yaratishda gipermatn, giperko'rsatkich va ularga oid tasvir, kod nomi elementlarini kiritish hamda ularni o'zaro bog'lash maqsadida HTML - gipermatn tahrirlagichdan foydalanish mumkin.

XULOSA

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti undagi zamonaviy ilm-fan va ta'lim-tarbiya hamda ularga mos texnika – texnologiyalarning muayyan bir ta'sirlari ostida rivojlanadi, takomillashadi va shular asosida uning intellektual salohiyati ham yuksalib boradi. Bunday yuksalish muayyan sohaga tegishli ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng samarali yutuqlaridan rejalashtirilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoniga qay darajada qo'llanilayotganligiga bog'liq bo'ladi. Ushbu yo'nalishdagi faoliyat hozirda hayotimizning turli jabhalarida ko'plab uchramoqda.

Bugungi kunda axborot-kommunikasion texnologiyalar UTTning deyarli barcha bo'g'inlarida u yoki bu shaklda foydalanib kelinmoqda. Shuning bilan birga UTT ning muayyan bir yo'nalishini to'liq qamrab olgan kompleks ishlanmalar juda kerak bo'lmoqda. Bunday ishlanmalar qilishda UTT ning usha rejalashtirilgan muayyan bir yo'nalishining ATM ni yaratishga to'g'ri keladi.

Mazkur BMI ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning natijasi asosida vujudga keldi. Unda UTT ning ajralmas tarkibiy qismi bo'lmish boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash yo'nalishi bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlovchi ta'lim muassasalari uchun ATM ni yaratish metodologiyasi haqidagi izlanishlar natijalari keltirildi. Natijada zamonaviy boshlang'ich ta'lim ATM ning ijtimoiy jihatdan zaruriyligi asoslandi va bu ATM ni yaratishning nazariy – metodologik asoslarini ishlab chiqish lozimligini hamda bu sohadagi ishlarni yanada takomillashtirish uchun pedagogik ta'lim mazmunini modernizasiya qilish kerakligini ham ko'rsatadi.

Ma'lumki, ATMni ta'lim muassasalaridagi muayyan bir fan bo'yicha ta'lim jarayonini takomillashtirishga erishiladi va shu asosda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashni ham ma'naviy jihatdan, ham intellektual salohiyat jihatdan va ham kasbiy jihatdan yetuk raqobatbardosh qilib tarbiyalashga erishiladi.

Ushbu sohada qilgan izlanishlarimiz natijalari asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin, ya'ni zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun ishlab chiqilgan ATM dan amaliy faoliyatda foydalanish quyidagidek qator ta'limiy afzalliklarga ega ekan:

- boshlang'ich ta'limdagi o'qituvchi ham, o'quvchi ham qulay vaziyatlardan foydalanib, tushintirish, tushinish imkoniyatlarini to'liq egallay oladi va eng asosiysi o'qitishning ijodiy muhiti yaratiladi;

- boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatli va ishonchli o'quv-didaktik va intellektual-kasbiy ma'lumotlar bilan ta'minlanadi, ya'ni ularning bilim ko'nikmalarini egallashdagi samaradorlik yuksaladi va bu orqali ular o'zi shug'ullanayotgan sohasi bo'yicha ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan ham xabardor bo'ladi;

- ATM barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarida dasturiy-didaktik ta'minotdan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi, ya'ni dars mashg'ulotlarini yuqori saviyada sifatli olib borish uchun sharoit yaratiladi;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarini YaAT dan foydalanishga o'rgatadi va ularning mustaqil ta'lim olishlariga sharoit yaratadi, ya'ni ularning kasbiy faoliyatida mustaqil holda bilimlar egallashlarida ishonchli universal didaktik vosita bo'lib, multimedia ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyojlarni qondiriladi. Bunda ushbu jarayonning diqqatga sazovar joyi shundaki, bunda bo'lajak mutaxassis o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirishga ongli va ijodiy holatda yondashadi;

- ta'limning eng samarali usullaridan foydalanishga imkoniyat yaratiladi va bunda rejalashtirilayotgan mavzu mazmunini to'liq o'zlashtirish kafolatlanadi.

Demak, ta'lim jarayonida ATM dan samarali foydalanishda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligida nafaqat o'zi uchun yangi bilimlar o'zlashtiriladi, balki bunda o'quvchi o'zgacha izlanishlar, kashfiyotlar og'ushida bo'ladi. Ma'lumki, bunday ijodiy va ongli faoliyat o'quvchi uchun alohida shaxsiy qadriyatga ega va shu sababli ham ushbu innovasion jarayon o'quvchining kasbiy

faoliyatga ishtiyoqini yanada orttiradi. Bu esa ta'limda o'ta muhim bo'lib, o'quvchining keyingi intellektual faoliyatida va kasbiy faoliyatiga mustahkam intellektual dasturiy-didaktik asosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashurova D., Yuldoshev Z. Ta'lim tizimida innovasion va axborot texnologiyalarini qo'llash // Xalq ta'limi.–Toshkent: 2006. – №1. – B. 15-19.
2. Jaloliddinov Z. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida pedagogik faoliyatiga qo'yilgan talablar // Xalq ta'limi.–Toshkent: 2007.-№4. – B.19 – 21.
3. Jo'rayev R.H., Toyloqov N.I. Axborotlashtirilgan ta'lim muhiti – o'qitish samaradorligini oshirish vositasi // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent: 2004. - №3. – B. 5 – 7.
4. Rashidov X.F., Saloxutdinov R.Z., Razilova M.M. Pedagogik diagnostikada kvalimetrik metodlaridan foydalanishda kompyuter texnikasini qo'llash. Metodik qo'llanma. – Toshkent: 2006. – 42 b.
5. Rashidov X.F. To'raqulov O.X. Bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashning axborotli ta'lim muhitini yaratish // Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari. – Navoiy: 2008. – B. 19 – 21.
6. Tursunov S.K. Ta'limda axborot resurslarini yaratish yo'llari va muammolari // Pyataya Mejdunarodnaya konferensiya “Obrazovaniye cherez vsyu jizn: nepretyvnoye obrazovaniye ustoychivogo razvitiya”. – Tosh. II. – Sankt – Peterburg – Tashkent: 2007. – S. 90 – 92.
7. To'raqulov I.N. Umumkasbiy va texnika fanlarini o'qitishda zamonaviy informasiya texnologiyalarning qo'llanilishi // “Tabiiy fanlarni o'qitish muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy – uslubiy anjuman materiallari. – Jizzax, 2006. – B. 186 – 188.